

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**Qarshi Davlat universiteti
Tabiatshunoslik va geografiya fakulteti
Geografiya kafedrası**

BITIRUV MALAKAVIY ISH

**MAVZU: Dehqonobod tumanida sanoat tarmoqlarini
rivojlantirish masalalari**



Bajaruvchi:

Ergasheva G

Ilmiy rahbar:

o'qituvchi. X.Jumayev

Qarshi - 2014

**Mavzu: Dehqonobod tumanida sanoat tarmoqlarini rivojlantirish
masalalari**

REJA:

I-bob. Sanoat – milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmog`i.

- 1.1. Sanoatni joylashtirish tamoyillari va omillari
- 1.2. Sanoat tarmoqlari va ularning rivojlanishi
- 1.3. Ayrim sanoat tarmoqlarini joylashtirishdagi o`ziga xos xususiyatlari va iqtisodiy samaradorligi.

**II-BOB. Sanoat tarmoqlarini joylashtirish va rivojlantirish
masalalari**

- 2.1. Dehqonobod tumanida sanoat tarmoqlarini joylashtirish omillari
- 2.2. Dehqonobod tumanida sanoat tarmoqlari, ularni rivojlantirish masalalari va kelajak istiqbollari

XULOSA

Foydalanilgan adabiyotlar.

KIRISH

Mamlakatimizning chekka va uzoq hududlaridan biri sanalgan Dehqonobod tumanida amalga oshirilayotgan ishlar kishini benihoya to'lg'inlantiradi. Istiqlol yillarida yangi uylar yullar va boshqa obektlar qurilmoqda.

Hozirgi kunda tuman yirik qurilishlar obodonlashtirish uchog'iga aylanganligini e'tirof etish joiz. Dehqonobod shaharchasida bir necha muassasa obektlari Karashina qurg'onchasida 347 mln sumlik dehqon bozorini qurilishi bejirim do'kon va maishiy xizmat ko'rsatish obektlarini qurilishi fikrimiz dalilidir. Tumanda asosiy ish bilan ta'minlash muammosi dolzarb muammolardan biridir. Utgan yili tumanda 6133 ta yangi ish o'rinlarini Beshbuloqda 1 mlrd. 390 mln sumlik yangi 20 ta yakka tartibda zamonaviy uylarni qurilishi davom etmoqda. Tumanda mavjud 106 ta qishloqni bosh rejasi ishlab chiqilgan va u bo'yicha amaliy ishlar davom etmoqda.

Sobiq ittifoq davrida Dehqonobod tumani gazlashtirish masalasi 2005 yilga qadar tuman aholisi suyultirilgan gazdan foydalanish masalaga muvofiq emas degan fikrga ega edilar. Istiqlolning dastlabki yillaridayoq suyultirilgan gaz keltirilda va 3000 xonadon tabiiy gaz bilan ta'minlandi.

XXI mo'jizasi nomini olgan „Toshguzor-Boysun Toshkurgon temir yulini kurilishi togli tumanda juda kata ahamiyatga ega buldi. Bu temir yo'lni qurilishi tumanda mineral reseryslardan foydalanish uni qazib chiqarish va qayta ishlash tarmoqlarini rivojlantirishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Dehqonobod tumanida neft va tabiiy gaz, kaliy tuzi, dalomid dala shpati, va boshqa yer osti boyliklarini kata zahiralarini aniqlaganligi. Bu tumanda sanoat rivojlanishiga juda muhim omil hisoblanadi. Ilgari sobiq sho'ralar davrida Dehqonobodga chekka hudud sifatida qaralardi. Endi esa to'la ishonch bilan aytish mumkinki, buyuk Istiqlol sharofati bilan tuman industiryal hududga aylanib bormoqda. Hozirgi paytda tumanda 6 ta yirik loyiha asosida bunyodkorlik ishlari olib bormoqda.

Dehqonobod tumanida temir yulni o'tganligi va tabiiy mineral resurislarga boyligi, huddudni kattaligi va aholini ish bilan ta'minlash maqsadida sanoat korxonalari, tarmoqlarini, geografik jihatdan asoslangan holda joylashtirish **mavzuni dolzarbliginidan** dalolat beradi.

Mamlakat istiqbolini belgilab beradigan sanoat soxasini jadal rivojlantirish bilan bog'liq ixtiyoriy islohatlarimizni amalga oshirish bundan keyin ham doimiy diqqat markazimizda bo'ladi.

Ilmiyligi. Tumanda sanoat tarmoqlarini joylashtirishga tabiiy va texnik-texnologik, demografik, iqtisodiy, ekologik ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil qilish shakllari transport vositalari, ishlab chiqarishni joylashtirish xarakteri ilmiy jihatdan asoslangan holda ta'sir ko'rsatadi.

Sanoatni joylashtirish borasidagi muammolarni hal etish uchun qo'yidagi vazifalarga alohida etibor qaratish zarur:

-tumanda ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish bozor sharoitiga mos ravishda olib borishni, uning tabiiy boyliklardan oqilona va samarali foydalanish:

-tumanda kichik va o'rta biznesga tegishli sanoat korxonalarini qishloqlarda yaratish, ayniqsa qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat tarmoqlarini olib yurish maqsadga muvofiq bular edi:

-sanoat obektlarini qurilish muddatini qisqartirish va ulardan foydalanish xarajatlarini keskin kamaytirish:

-tabiat va atrof-muhitni muhofaza qilish sharoitlarini yaratish va hokazolar:

BMI ni maqsadi. Dehqonobod tumanida sanoat korxonalarini rivojlantirishda va joylashtirishda, ularga ta'sir etuvchi iqtisodiy-ijtimoiy omillarini sanoat tarmoqlarini to'g'ri joylashtirishni asosiy maqsad qilib olganmiz.

I BOB. SANOAT – MILLIY IQTISODIYOTNING YETAKCHI TARMOG'I

1.1 Sanoatni joylashtirish tamoillari va omillari

Sanoatni mamlakat hududida oqilona joylashtirish-jamiyat qurilishining eng muhim vazifalaridan biri bo'lib, respublika va har bir iqtisodiy rayon xalq xo'jaligini yuqori darajaga ko'tarish va rivojlantirishning zaruriy shartidir.

Ma'lumki, ishlab chiqaruvchi kuchlar va uning eng muhim elementi bo'lgan sanoatni joylashtirishning asosiy qonuniyatlari ishlab chiqarish usuli bilan belgilanadi. Shu sababli hozirgi bozor munosabatlarini shakllantirishda, iqtisodiy islohatni davlat amalga oshirilmoqda va bu uning tarkibiy qismi hisoblanadi hamda uni amalga oshirish milliy iqtisodiyotimizning hozirgi holati va strategik vazifalari bilan belgilanadi.

Sanoatni joylashtirish deganda, uni yer shari hududida, shuningdek, ayrim mamlakat yoki iqtisodiy rayonlarda taqsimlanishi tushiniladi.

Sanoat ishlab chiqarishni joylashtirish uning hududiy tashkil etish shakllarini ifodalaydi va korxona (firma) larni ma'muriy va iqtisodiy rayonlarda joylashtirishda namayon bo'ladi.

Milliy iqtisodiyotning bu real sektorini joylashtirish ham bevosita hududiy mehnat taksimoti bilan bog'liq. Ijtimoiy mehnat taqsimoti unsuri bo'lgan hududiy mehnat taqsimoti (XMT) soddorok qilib aytganda, turli joylarning: mamlakat yoki viloyatlar, tumanlar, shaxarlarning xar xil mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashishidir. Natijada ana shu joylarning iqtisodiy „bashorati“ shakllanadi va ularning hududiy tizimdagi urni uz ifodasini topadi.

XMT keng ma'noda-bu ishlab chiqarish soxa (tarmoq) larini hududning tabiiy sharoiti va boyliklari, aholisi, mehnat va boshka resurslari kabi hamda mintaka bozorining xajmi, aholisining solib olish kobiliyati, infratuzilma va komunikasion tizimining rivojlanganlik darajasi kabi omillarga karab joylashtirishini nazarda tutadi.

Sanoat ishlab chiqarishni oqilona joylashtirish-kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonini yukori suratlarda amalga oshirish, mamlakat tarkibiy boyliklaridan xar tomonlama samarali foydalanish va buning natijasida ijtimoiy mehnat unumdorligini yuksaltirish, xar bir korxonada mahsulot kand narxini pasaytirish, mamlakat barcha iqtisodiy hududlarini bir tekis rivojlantirish, shaxar va qishloq hamda sanoat va qishloq xujaligi urtasidagi tafovutni yuqotish, mamlakat mudofaa qobiliyatini oshirish imkonini beridi.

Sanoatning oqilona joylashishi transport va qishloq xujaligining joylashishiga hamda Yangi shaxa rva kiloklarning paydo bulishiga, ayrim iqtisodiy hududdlarning muayayaan mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha ixtisoslashuviga olib keladi.

Sanoatni iqtisodiy hududlar buylab joylashtirish ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarish jarayoniga uzluksiz erishish, tejamkor ijtimoiy mehnat unumdorligi usishi hamda aholining moddiy va madaniy faravonligi ko'tarilishi sanoat ishlab chiqarishni joylashtirishning iqtisodiy-ijtimoiy samaradorligi mezonidir.

Ishlab chiqarishning joylashtirishni fundamental tamoyillari mavjud bo'lib, ular ishlab chiqarish kuchlarini, xususan, sanoatni mamlakat bo'yicha oqilona joylashtirish, iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Ular jumlasiga qo'yidagilar kiradi:

-sanoat ishlab chiqarishni avvalombor xomashyo, yokilgi energetika manbalariga yaqin va nihoyat sanoat mahsulotlarini istemolchi hududlarga tobora yaqinroq joylashtirish:

-iqtisodiy hududlar urtasida mehnatni oqilona taksimlash va iqtisodiy hududlar xujaligini majmualiy rivojlanishni ta'minlash:

-xar kaysi viloyat yoki tumanning iqtisodiy rivojlanish darajasini baravarlashtirishga intilish:

-sanoat tarmoqlarini respublikaning mudofaa strategiyasiga asoslanish:

-mamlakatlararo iqtisodiy alokalarda uzaro teng manfaatli munosabatlarni urnatish xalkaro mehnat taksimoti negizida samaradorligiga erishish, jaxon xujaligiga integratsiyalashuvini jadallashtirish:

-sanoat korxonalarini joylashtirishda hududning ekologik vaziyatini xisobga olish atrof-muxitga chikindilar chiqarishning meyoriy normalarga asoslanish va xokazo.

Yuqorida keltirilganlardan ma'lum bulyaptiki, sanoat ishlab chiqarishni xomashyo manbaiga va istemolchi hududlarga yaqin joylashtirish sanoatni oqilona joylashtirishning eng muhim tamoillaridan biri xisoblanadi. Sanoatning xomashyo bazasiga yaqin bulishi qayta ishlashning barcha tadrijiy boskichlarida Ushbu resurisni qayta ishlashdan tortib yarimfabrikatdan tayyor mahsulot olishga kadar, mehnatning eng kam sariflash imkoniyatini nazarda tutadi. Masalan, elektro enegetika kupincha suv yoki yokilgi bazasida rivojlanadi, tukimachilik sanoati xomashyo manbaiga yaqinlashtiriladi, ozik-ovkat sanoati yesa kuprok iste'molchi hududlarda joylashtiriladi. Sanoatni xomashyo va yokilgi

energetika manbaiga yaqinlashtirish hududlarda mavjud resurslarni qayta ishlash soxasiga jalb etish, korxonalarini oqilona ulchamini (razmerini) belgilash imkoniyatlarini beradi.

Xomashyo, yokilgi va tayyor mahsulotni uzok masofaga tashishni kamaytiradi va shu asosda ishtimoiy mehnatni anchagina tejashga olib keladi.

Sanoatning xomashyo yokilgi energetika manbalari va iste'molchilarga yaqin joylashtirilishi sanoat ishlab chikarilishi mamlakat buylab bir tekis taksimlanishini ta'minlaydi. Chunki mamlakat buylab ishlab chiqarish resurslari notekis taksimlangan.

Sanoatni bir tekisda joylashtirish sanoat tarakkiyotini bozor iqtisodiyoti sharoitiga mos sifat xususiyatidir. Lekin uning barcha soxalarini duch kelgan hududga majburan joylashtirish tavsiya etilmaydi. Hududlarning sanoat rivojlanishi orasida bunday tenglikka erishish kup xollarda bir kator sanoat korxonalarini ularga tegishli shart-sharoitlar yuk hududlarga suniy ravishda joylashtirishga , ishtimoiy mehnatning ortikcha xarajatlariga olib kelishi mumkin.

Sanoatni xomashyo va yokilgi-energitika manbaiga yaqinlashtirish va ishlab chiqarishni mamlakat hududi buylab bir tekis joylashtirish yentensev ravishda ruy beradiigan fan-texnika tarakkiyotiga imkoniyat tugdiradi.

Elektronizasiyalashtirishning har taraflama rivojlanishi, ishlab chiqarishni kompyuterlashtirish, yangi texnologiyalardan keng foydalanish, sanoat ishlab chiqarishning tabiiy geografik muxitga tobiyligini susaytiradi, sanoatni joylashtirish punktlarini ancha erkin (puxta) tanlab olishga moddiy texnik shart-sharoitlar yaratib beradi.

Elektronizasiyalash va kimyolashtirish ishlab chiqarish soxasiga yangidan, yangi matereallarni, ishlab chiqarish chikindilarni ikkilamchi resurslarni jalb etadi.Xomashyodan majmuali foydalanish turli xildagi ishlab chiqarishlarni birlashtaradi.

Fan texnika tarakkiyoti geologik kidiruv ishlarni kengaytirishga mamlakatning turli hududlarida mineral xomashyoning yangi konlarini ochishga imkoniyat tugdiradi. Sanoatni joylashtirish rejasi yangi korxonalar va hududiy ishlab chiqarish majmualar joylashtiriladigan hududlar va punktlari tanlanishining xar tomonlama iqtisodiy asoslanishini talab qiladi.

Sanoatni joylashtirishning iqtisodiy samaradorligi ishtimoiy mehnat unumdorligida namayon bo'ladi. Iqtisodiy rayonlar urtasida mehnatni oqilona taksimlash va iqtisodiy rayonlar xujaligining majmuali rivojlanishi sanoatni joylashtirishning muhim tamoili bo'lib xizmat qiladi.

Iqtisodiy rayonlar xujaligi majmuali rivojlanishi hududlarning uzaro mehnat taksimoti natijasida uziga xos ixtisoslashuviga olib keladi. Ay Rim iqtisodiy rayonlarning iktisoslashuvi ularda mavjud bo'lgan tabiiy boyliklarga va ushbu boyliklardan xalk xujaligi mikiyosida oqilona foydalanish darajasiga bog'liq bo'ladi.

Mamlakat ichki resurislardan tulik va samarali foydalanish xar bir hududning respublika mikiyosida ayrim turdagi mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashuvini talab qiladi va shu bilan bira xar bir hududda shu hudud talablarini kondiradigan tarmoqlar rivojlanishiga olib keladi.

Ishlab chiqarishni joylashtirishning Yana bir muhim tamoili-mamlakatlararo dustlik va uzaro iqtisodiy yordam asosida tashkil topgan xalkaro mehnat taksimotidir. Bunday mehnat taksimoti xar bir

mamlakatda oqilona iqtisodiyot tarkibini barpo etish va uning rivojlanishi uchun tabiiy va iqtisodiy jihatdan kulay sharoitga ega bo'lgan sanoat tarmoqlarining ixtisoslashuvini ta'minlaydi.

Yuqorida qayd qilingan tamoillarni amalga oshirishda korxonalar va hududiy ishlab chiqarish majmualari joylashtiriladigan joylarni tanlashga ta'sir kursatuvchi omillar e'tiborga olinadi.

Sanoatni joylashtirishga tabiiy va texnik-texnologik, demografik, iqtisodiy ekologik omillar, ishtimoiy ishlab chiqarishni tashkil qilish shakillari, transport vositalari, ishlab chiqarishni joylashtirish xarakteri ta'sir ko'rsatadi.

Tabiiy omillarga: foydali kazilmalar, gidro energetika va urmon boyliklarining miqdor va sifat ko'rsatkichlari, hududning iqlim sharoitlari, tabiiy suv yullari hamda mehnat resurslarining joylashishi kiradi. Yuqoridagi barcha omillar ekologik omillar bilan xisoblashlari shart. Tog'-kon sanoati va gidroenergetika tarmoqlarida tabiiy sharoit korxonalarining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'sir kursatadi va bu tarmoq korxonalarini joylashtirish foydali kazilmalar va gidravlik resurslar joylanishiga bog'liq bo'ladi. Kora metallurgiya va Kimyo sanoatini korxonalarining qayta joylashishi asosan suv resurslariga bog'liq.

Aholini va ishlab chiqarishning joylashishi urtasida uzaro mustaxkam aloqa mavjud. Mehnat resurslarining geografik joylashishi avvalo, kup mehnat sarflanadigan sanoat tarmoqlarining joylashishiga ta'sir etadi. Shuning uchun aholi siyrak bo'lgan hududlarda kup mehnat talab qiladigan sanoat tarmoqlari (asbobsozlik, radiotexnika, yengil sanoat) joylashtirilmaydi.

Sanoat tarmoqlarini joylashtirishda ayrim hududlar mehnat resurslarini tarkibi va tuzilishi hamda malakaviy darajasi muhim ahamiyatga ega. masalan, mashinasozlikning (avtomobilsozlik, asbobsozlik, anik mashinasozlik,) yuqori malaka talab qiluvchi tarmoqlari shunday malakali kadrlar bor yerda joylashtiriladi, xotin-kizlar mehnatini talab qiluvchi yengil sanoat aholining zich va ayollar ishchi kuchi taklifi yuqori bo'lgan hududlarda rivojlantiriladi.

Fan-texnika tarakkiyoti hama sanoat tarmoqlarining joylashtirishning asosiy omili xisoblanadi. Kimyolashtirish sanoatini joylashtirishga tobora kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Kimyoviy usullarni kullash sanoatining joylashishiga iklim ta'sirini kamaytirmoqda, natijada uning respublika hududi boylab bir tekis joylashuviga sharoit yaratmoqda. Sanoatning joylashishiga texnologik jarayonlar xarakteri ham ta'sir etadi. Birinchidan, ishlab chiqarish texnologiyasi talab qilinadigan xomashyo va energiya xarakteri, ishlab chikariluvchi tayyor mahsulot turi va xususiyatlari, xomashyo va tayyor, mahsulotni tashish sharoitlarining uzgarishiga bog'liq. Ikkinchida, hududning uziga xos xususiyatlari joylashtirilayotgan korxonalarning texnologik jarayonini tanlashda xal qiluvchi rol uynaydi.

Yer osti boyliklarini kazib chiqarish va xomashyo hamda yokilgini boyitish texnologiyasining takomillashuvi tog-kon sanoatini tekis joylashtirish imkonini beradi. Ishlab chiqarish jarayonlarini kompleks avtomatlashtirish va kompyuterlashtirish mahsulotga sarflanadigan mehnatni kamaytiradi. Shu tufayli kompyuter texnologiyasiga asoslangan korxona (firma) lar aholi siyrak hududlarga joylashtirilsa, katta samara olish mumkin.

Sanoatni joylashtirish konsentratsiyalash, ixtisoslashtirish, kooperativlashtirish va kombinatlashtirish kabi ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil kilishning progressiv shakllari katta rol uynaydi. Ilab chiqarishning konsentratsiyalashuvi natijasida korxona iste'mol kilish uchun juda katta xomashyo va energetika bazasini vujudga keltirish, korxona mahsulotini iste'mol kiluvchi hududni kegaytirish talab kilinadi. Natijasida transport xarajatlari oshib ketadi, korxonalarni joylashtirish nuktasi va maydonini tanlash masalasi ancha kiyinlashadi. Shu sababli bozor sharoitiga utishning Hozirgi boskichida yirik korxonalarni joylashtirish urniga urta va kichik korxonalarni asoslashda transport omilini xisobga olish kerak.

Ixtisoslashtirish ham sanoatni joylashtirishga xuddi konsentratsiyalashtirish kabi ta'sir kursatadi, chunki ixtisoslashtirish bir turdagi mahsulot ishlab chiqarishni mujassamlashtirishdan iboratdir. Shuning uchun ixtisoslashtirish darajasi oshgan sari transportga talab ortib boradi. Korxona (firma) larni u yoki bu hududga joylashtirishda bunday xarajatlarning mikdorini albatta, xisobga olish kerak.

Korxonalarni kooperativlashtirishning sanoatni joylashtirishga ta'sirni hududiy ishlab chiqarish majmualarini barpo kilish misolida kurish mumkin. Hududning sanoat majmuai uzok vakt uzaro kooperativlashgan aloka kiluvchi xar xil sanoattarmogiga xos bo'lgan bir kator korxonalardan iborat. Kooperativlash omilini xisobga olmay turib joylashtiriluvchi obekt yoki majmualarning iqtisodiy samaradorligini to'g'ri aniklash mumkin emas.

Ishlab chiqarishni kombinatlashtirish sanoatni joylashtirishga turlicha ta'sir kursatadi. Kombinatlari-yukori mujassamlashgan korxonalar. Shuning uchun ularni joylashtirish mujassamlashtirishga uxshashdir.

Respublika mudofa qobiliyatini yanada yukori darajaga ko'tarish sanoatni joylashtirishni tashkil etishga, albatta, etiborga olinishi kerak bo'lgan muhim omillardan biri xisoblanadi.

Sanoatni joylashtirishga oldindan me'ros kolgan ilab chiqarishni joylashtirish xarakteri ham ta'sir kursatadi. Masalan, dastlab tashkil etilgan xunarmandjilik markazlari, ular infratuzilmasini shu yerning uzida yoki shu hududga yakin bo'lgan joylarda barpo etilishi zaruriyatini tugdiradi.

1.2 Sanoat tarmoqlari va ularning rivojlanishi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarixiy rivojlanishi va uning asosiy yakunlari to'g'risida so'z yuritilganda shuni ta'kidlash kerakki, hozirgi Uzbekiston hududida „uy sanoati“ ning rivoji bundan 12-15 ming yil muqaddam-meozolit davrida boshlangan. Bu davrda juda oddiy mehnat qurollari va buyumlari tayyorlangan.

Yangi tosh asri (neolit, miloddan avvalgi 5-ming yillikning boshi) davrida kemachilik, tukimachilik vujudga kelgan. Neolit davrining oxirida metall dan kurol yasash boshlangan.

Arxeologik topilmalardan ma'lum bulishicha, miloddan avvalgi 3-ming yillikning oxiridayok Hozirgi Uzbekiston hududida yashagan aholi misdan kurol yasashni bilgan.

Quldorlik tizimi (miloddan avvalgi 1-ming yillik urtalari, V asr) davrida mehnat qurollari yasash jarayonining tarakkiy etishi, metallga ishlov berishning takomillashuvi hunarmandchilik yuksalishiga, ayirboshlash va savdo-sotiq kuchayishiga olib keladi.

Feodalizm tuzumining boshlarida (VII-VIII asrlarda) Farg'ona bilan Sug'da oltin, mis, temir, Iloqda ko'rg'oshin, kumush, oltin, Shaxrisabzda toshtuz qazib chiqarilgan.

IX asrda Samarqand sifatli qog'ozi va lampa shishasi bilan mashxur bo'lgan, shosh viloyati konchilik mahsulotlari bilan dong taratgan. Usha davirda o'rta Osiyodan sharqiy Yevropa, Xitoy va boshqa yurtlarga Buyuk Ipak yo'li orqali charm, mato, ipak, jun, kiyem-kechak chiqarilgan.

X – XIII asrlarda yuz bergan feodal tarqoqlik, qabila va elatlar o'rtasidagi nizolarning avjiga chiqishi tufayli hunarmandchilikda yirik o'zgarishlar ro'y bermagan.

XIV asirning 2- yarmida Amit Temur Samarqandda hokimiyatni qo'lga kiritib, markazlashgan davlatga asos soldi. Natijada davlatning iqtisodiy va ijtimoiy ravnaqiga yo'l ochildi. 15- asrning oxiriga kelib Movaraunnaxrda yuzaga kelgan ziddiyatlar tufayli Temuriylar davlatining iqtisodiy negiziga putr yetadi va rivojlanish tuxtab qoldi.

XVI-XVIII asrlarda Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklarning vujudga kelishi iqtisodiyotning, shu jumladan, sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishiga ijobiy tax'sir kursatdi. XIX-asrga kelib Turkistonda xunarmandchilikda yogoch va metall uymakorligi, idishga naksh solish, matolarga gul bosish, kurollarni badiiiy bezash rivojlandi. Bu asrning ikkinchi yarmida Uzbekiston hududiga tarakkiyot tezlashdi sanoat, ayniksa ip gazlama sanoati rivoj topdi.

XX asr boshlarida kuplab paxta tozalash, yog-moy zavodlar kurilib ishga tushirildi. 1925-1926 yillarda elektro stansiyalar kurila boshladi. Birinchi

bo'lib Toshkent yaqinida kurilgan Buzsuv gidroelektrstansiyasi 1926 yil 1-mayda ishga tushirildi.

Samarqand, Buxoro, Qo'qon, Termiz va Asaka shaxarlarida issiqlik stansiyalari va kurila boshlandi. Bunday elektirastansiyalar soni 1930 yilda 30 ga yetdi. Usib borayotgan energitka bazasi bir kancha yangi sanoat korxonalari kurishga imkoniyat yaratd.

Ikkinchi jaxon urushigacha Bu yerda: 500 dan ortik sanoat korxonalari, jumladan, « Tashselmash», Toshkent tukimachilek kombenati, Chirchik elektrokimyo kombenati, Kattakurgon yog zavodi, Bekobod va Kuvasoy sement korxonalari kurildi. Neft va rangli nodir metallar kazib chiqarish, kurilish sanoat mahsulotlarini tayorlash rivoj topdi.

Urush boshlanishi bilan Respublika xalk xujaligi, jumladan, sanoat ishlab chiqarishi xarbiy maqsadlarga karatildi. Buerda nemis fashistlari egallb olgan hududlardan 100 ga yaqin sanoat korxonalari kuchirib keltirildi va ular kiska vakt ichida tula kuvvat bilan ishlay boshladi. 1941-1945 yillar davomida Respublikang industrial tarakkiyoti GIS lar kurush bilan energitika bazasini kuchaytirish, qishloq xujaligi, aholii va front extiyojlarini kondiradigan zavod va fabrikalarni kurish yulidan bordi. Bu davirda 280ta yirik, urta va kichik korxonalar kurilib, ishga tushirildi. Natijada Uzbekiston armiyaning sanoat asloxaxonalaridan biriga aylandi.

Urushdan keyingi yillarda ham sanoat tarakkiyotiga e'tibor karatilgani sababli uning bir kancha yangi tarmoqlari va korxonalar vujudga keldi. Traktorsozlik, leftsozlik, elektrotexnika sanoati, gaz ishlab chiqarish, uy-ruzgor buyumlari tayyorlash, yigma temir-beton va keramika sanoati vujudga keldi. Engil sanoatning trikataj, chini ishlab chiqarish soxalari shakllandi. Ozik-ovkat sanoatining tarkibiy kisimlarida

anchagina uzgarishlar ruy berdi. Utgan asrning 90-yillariga kelib, bu tarmoqdagi yirik va urta korxonalari 300 dan ortdi.

Sanoat tarakkiyotida yokilgi-energetika majmuasining urni alohida. Ular tarkibiga energetika, neft va neftni qayta kazib olish va bosh

1.3. Ayrim sanoat tarmoqlarini joylashtirishdagi o`ziga xos xususiyatlari va iqtisodiy samaradorligi.

Ayrim sanoat tarmoqlarining o`ziga xos iqtisodiy xususiyatlari ishlab chiqarishni joylashtirishga aloqadordir. Shuning uchun ayrim tarmoqlarni joylashtirishni rejalashtirish va iqtisodiy asoslashda ularning o`ziga xos xususiyatlarini e`tiborga olish zarur.

Elektr stansiyalarini joylashtirishda mineral yoqilg`ilarni tashish mumkin bo`lgan holda, suv resurslarini ko`cherish mumkin emasligini hisobga olinadi.

Qora metallurgiya sanoati korxonalarini joylashtirishda uning xomashyo bozasi, ishlab chiqariladigan mahsulot nomenklaturasi, korxona turi, tarmoqning suvga talabi hamda yirik metallurgiya kombinatlarining boshqa tarmoqlar joylashishini va yirik shaharlar paydo bo`lishini e`tiborga olish zarur.

Kimyo sanoatining turli tarmoqlari joylashtirishda zamonaviy kimyo texnologiyasining o`ziga xos xususiyatlari, ya`ni kimyo sanoatiga tegishli xomashyo ko`pligi, energetika resurslari hamda ko`p tarmoqlarning chiqindilarini majmuali tarzda qayta ishlash, bir turdagi xomashyodan turli va bir turdagi mahsulotlarni har xilxonashyodan olish, sintetik materiallarni barcha iqtisodiy hududlarda ishlab chiqarish mumkinligi hisobga olinadi.

Mashinasozlik sanoatini joylashtirishda ishlab chiqariladigan mahsulot xususiyatlari, tarmoqning metallga bo'lgan talabi, ularning tashish masalalari, ayrim iqtisodiy rayonlar sanoatining ixtisoslashuvi, iqtisodiy hududlarning industrial rivojlanish darajasi, mashinasozlik korxonalarida ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va kooperativlashtirish, mashinasozlik sanoati mahsulotlariga barcha hududlarda talabning doimiyligini e'tiborga olish zarur.

Yengil sanoat, oziq-ovqat sanoatining ko'pgina tarmoqlari mamlakatning barcha iqtisodiy rayonlari, bir qator tarmoqlar esa muayyan hududlarda joylashadi. Bular-tikuvchilik, trikotaj, poyabzal, qandolat, un-yorma, makaron mahsulotlaridir. Non va alkogolsiz ichimliklar sanoati esa har bir aholi punktida joylashtirilishi kerak.

Yuqorida ko'rsatilgan tarmoqlar va to'qimachlik sanoati is'temol bozori doirasi keng hududlarda joylashadi. Bunga sabab xomashyoni tayyor mahsulotga nisbatan tashish osonroq, tayyor mahsulotga assortimenti is'temol qiluvchi ma'lum hudud aholisining jinsiy va yosh jihatdan tarkibiga, milliy mentalitetiga bog'liq bo'lishidir. Xomashyo bazasiga yaqin joyda esa shakar, yog'-moy, konserva, spirt, vinochilik, paxta tozalash va shu kabi tarmoqlar joylashadi. Shunday qilib, korxonalarni joylashtirishni rejalashtirish va iqtisodiy asoslash paytida har bir tarmoqning o'ziga xos xususiyatlarini tog'ri hisobga olish, ishlab chiqarishni joylashtirishning umumiy tamoillariga tayanish butun sanoatni joylashtirishning yuqori samaradorligini ta'minlash imkonini beradi. Natijada ijtimoiy mehnat unumdorligi oshadi bu esa, milliy iqtisodiyotning rivojiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Sanoat korxonasini joylashtirish hududi va joyini tanlash yangi quriladigan korxona hajmi va ixtisoslashishini, ularning ishlab turgan, loyihalanayotgan korxonalar bilan aloqalarini aniqlash sanoat korxonalarini faqat geografik jihatdan to'g'ri joylashtirish uchungina emas, balki yangi va ishlab turgan korxonalarni rekonstruksiya qilishni loyihalash uchun ham muhimdir. Loyihaning yuqorilash uchun ham muhimdir. Loyihaning yuqoridagi masalalariga bag'ishlangan qismi qolgan barcha masalalariga bagi'shlangan qismi qolgan barcha qismlarning ishlashi uchun manba bo'lib xizmat qiladi. Bu qismda korxonani mazkur joyda qurishning maqsadga muvofiqligi, xomashyo, yoqilg'I, energiya va suv manbalari, loyihalanayotgan korxonaning qiymati va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari aniqlanadi:

a) korxonalarni joylashtirish hududini tanlash;

Sanoat korxonasini qurish uchun tanlangan hudud (iqtisodiy hudud) quyidagi talablarga javob bermog'i lozim: hududda xomashyo, yo'qilg'isi, asosiy va yordamchi mahsulotlar mavjud bo'lmog'I hamda loyihalashtirilayotgan korxona mahsulotiga yetarli talab bo'lishi zarur. Bundan tashqari, qurilayotgan korxona uchun tanlangan hudud ishlab chiqarish kuchlari majmuasi rivojlanishini va mahalliy xomashyo, energetika resurslaridan to'la foydalanishni, tanlangan hududda quriladigan korxonalar ular mansub bo'lgan tarmoqlarning mamlakat hududida bir tekis joylashishini ta'minlamog'I kerak.

b) korxonani joylashtirish punktini asoslash; tomonlama iqtisodiy asoslanib bo'lgach, shu hudud ichda korxona qurilish o'rni (punkti) belgilanadi. Korxonani joylashtirish punkti to'g'ri tanlanganligi

qurilishning qancha davom etishiga, uning qiymatiga va korxonaning istiqbolida iqtisodiy samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi.

Korxona joylashtirish punktini asoslashda yirik shaharlarda sanoatning haddan tashqari, mujassamlashib ketishiga yo'l qo'yib bo'lmazligiga, korxonalarni yagona energetika va Umumiy kommunikasiyalarga ega bo'lgan ishlab chiqarish shaklida maqsadligiga muvofiqligiga, aholi joylarining rivojlanishi hamda qabul qilingan sanitariya-gigiyena talablari va normalariga rioya qilinishi zarur.

Tanlangan qurilish punkti transport zarajatlari kam bo'lishi uchun xomashyo manbaiga va iste'mol joylariga maksimal yaqin bo'lmog'i lozim. Punktni tanlashda korxonani qurish uchun maydonni tanlash va uni iqtisodiy baholash alohida ahamiyat kasb etadi. Maydon gorizantal yuzaga ega bo'lmog'i lozim. Barcha binolar, inshootlar, korxona, transport xo'jaligini maydonda rasional joylashtirish, kelajakda kengaytirish, temir yo'l magistraliga oson qo'shilish, suv bilan oson ta'minlash va ortiqcha suvlarini oqizib yuborish, yaqin oraliqda joylashgan aholi punktiga ega bo'lgan sanitariya-gigiyena talablariga javob berishi zarur.

Mustaqillik yillarida sanoat ishlab chiqarishini joylashtirishda yirik o'zgarishlar ro'y berdi. Ayrim hududlar o'rtasida yangidan-yangi aloqalar o'rnatiladi, ularning o'zgarishlar davrigacha bo'lgan ixtisoslanishi tubdan o'zgardi. Sanoatda qayta ishlash uchun yangi hududlarda joylashgan bir qator foydali qazilma konlari ishga tushirildi. U yerlarda kuchli sanoat majmualari tashkil topdi. Bu o'zgarishlar yuqorida aytib o'tilgan sanoatni joylashtirish tamoillari O'zbekiston davlatning iqtisodiy strategiyasi va taktikasi asosida ro'y berdi va bir ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligining oshirilishiga olib keladi.

Sanoatni joylashtirishda ro'y beradigan tub o'zgarishlarning iqtisodiy samaradorligini ko'pgina ko'rsangichlar yordamida hisobga olinadi. Lekin, bu o'zgarishlarning bir qismini miqdor jihatdan o'lchash mumkin emas, chunki ular siljishlarning sifat jihatidan natijasini ko'rsatadi. Bular qatorida yangi hududlarning juda katta foydali qazilma resurslarini sanoatda foydalanish uchun ishga tushirish, ilgari nisbatan qoloq hududlarning industrial va agrar hududlarga bo'linishini yo'qotish va shu kabilar kiradi.

Sanoat joylashishiga siljishlarning iqtisodiy samaradorligini miqdor jihatdan hisoblashda birinchi navbatda xalq xo'jaligiga sarflangan capital mablag'lar samaradorligini oshirish ko'zda tutiladi.

Sanoatni joylashtirishdagi siljishning iqtisodiy samaradorliginining aniqlashning muhim ko'rsatkichlaridan yana biri mehnat unumdorligining oshishidir. Respublikaning markaziy hududlarida joylashgan bir qator tarmoq korxonalari boshqa hududlardagi korxonalarga nisbatan yuqoriroq mehnat unumdorligiga ega. Lekin boshqa hududlarda qurilayotgan korxonalar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy muommolarni ham hal etadilar.

Sanoatni joylashtirishning iqtisodiy samaradorligini aniqlaydigan yana bir ko'rsatkich-mahsulot tannarxidir. Boshqa hududlarda joylashgan korxonalar mahsulotning tannarxi rivojlangan hududlaridagi korxonalarnikidan birmuncha past bo'lishi mumkin. Lekin bunday yo'qotish mamlakat miqiyosida amalga oshirilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyot tufayli barham topadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan amalga oshirilgan anchagina siljishlar bilan birga, mustaqillikka erishilguncha mamlakat sanoatini joylashtirilishida yo'l qo'yilgan qator kamchiliklar hali ham to'la barham

topgani yo`q. hududlar ichra va hududlararo kooperativlashtirishda ham bir qator muammolar mavjud. Bularning barchasi sanoat mahsulotlarining asosiy turlarini, xomashyo va yoqilg`ini nixoyatda uzoq va qarama-qarshi taraflarga tashish zaruriyatini tug`dirishi natijasida ijtimoiy mahnat unumdorligi ko`tarilishi salbiy ta`sir ko`rsatmoqda. Shu bois bozor iqtisodiyotining keying bosqichiga o`tish davrida sanoatni oqilona joylashtirish masalasiga katta e`tabor berish kerak.

Sanoatni joylashtirish borasidagi muammolarni hal etish uchun quyidagi masalalarga alohida e`tiborni qaratish zarur:

- Respublikada ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish bozor sharoitiga mos ravishda olib borilishi, uning tabiiy boyliklaridan oqilona va samarali foydalanish hamda kooperativlashtirish afzalliklaridan to`la-to`kis foydalanish;

- kichik va o`rta biznesga tegishli sanoat korxonalarini qishloqlarda yaratish, ayniqsa, qishloq xo`jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat tarmoqlarini olib kirish maqsadga muvofiq bo`lar edi;

- sanoat obyektlarining qurilish muddatini qisqartirish va ulardan foydalanish xarajatlarini keskin kamaytirish;

- tabiat va atrof-muhitni muhofaza qilish sharoitlarini yaratish va h.k.lar.

Sanoat obyektlarini joylashtirish samaradorligini aniqlashda capital qo`yilmaning iqtisodiy samaradorligini aniqlashning rasmiy usulidan foydalanish mumkin. Bu usulda binolar sanoat korxonasini joylashtirishning iqtisodiy jihatdanb eng qulay loyiha-mahsulot birligiga sarflanadigan ijtimoiy mehnat kamayishini ta`minlovchi variant tanlab olinadi.

U quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$X=T+E_K \cdot K,$$

Bu yerda:

T-konkret hudud sharoitida tayyorlanadigan mahsulotning to'la tannarxi;

E_K - capital qo'yilmaning normative qiyosiy samaradorlik koeffisienti;

K- ishlab chiqarish quvvatini yaratish uchun lozim bo'lgan capital quyilma miqdori;

Sanoat obyektlarini joylashtirishning qiyosiy samaradorligini aniqlash capital quyilma va mahsulot tannarxini hisoblashni va boshqa sharoitlarni ham batafsil aniqlash hamda har tomonlama taqqoslashni va barcha imkoniyatlarni nazarda tutishnu taqozo etadi.

ga bir qator kichik sohalar kiradi. Bu majmuaning hissasi sanoat ishlab chiqarishda 23,8 % ni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi jahonda gaz ishlab chiqaruvchi 10 ta mamalakatdan biridir. Bu yerda qudratli issiqlik elektrostansiyalari va gidroelektrostansiyalar mavjud.

Energetika tarmog'I Respublika xalq xo'jaligining negizi, iqtisodiyot va fat-texnika taraqqiyotining mustahkam poydevori hisoblanadi. O'zbekiston energetika tizimi umumiy quvvati 11,7 mln kvv bo'lgan 37 issiqlik va gidravlik elektrostansiyalarni o'z ichiga oladi. Ular yiliga 55 mlrddan ortiq elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyatiga ega. O'zbekiston energetika tizimining barcha kuchlanishlardagi elektr tarmoqlari umumiy uzunligi qariyb 228 ming km.ni tashkil etadi. Tarmoq

trasformatorlarining umumiy quvvati 42,6 MVAg teng. Hozir respublika energetika tizimida 50 mingga yaqin xodim ishlaydi.

“O`zbekenergo” davlat kompaniyasi tarkibidagi, qurilish-montaj, sozlash, ta`mirlash va boshqa bir qator tashkilotlarning to`la majmui O`zbekiston energetika tizi ishonchli ishlashini, izchil rivojlanishini ta`minlamoqda.

Hozirgi paytda o`zbekiston kuniga 131 mln kilovattsoat elektr energiyasi ishlab chiqarilmoqda. Bu 1940 yilda hosil etilgan elektr energiyasiga nisbatan 100 marta ko`pdir.

Respublika yoqilg`I sanoati yer qa`rida topilgan va qazib olinayotgan ko`mir, neft, gaz konlari negizida shakllangan va rivojlanib bormoqda. Respublikada 160 ga yaqin neft va gaz konlari ochilgan, ularning 115 tasi Buxoro va Xiva geologic provinsiyasida, 27 tasi Farg`ona vodiysi, 10 tasi Surxondaryo, 7 tasi Ustyurtda joylashgan. Hozir 71 ta neft, gaz va gaz kondensati, 2 ta ko`mir konidan foydalanilmoqda. 50 dan ortiq neft, gaz va gaz kondensat koni esa kelajakda ishga tushirish uchun tayyorlab qo`yilgan.

Yoqilg`I sanoati respublika yoqilg`i-energetika majmuasining asosiy tarmog`ini tashkil etadi va barcha turdagi yoqilg`I qazib olish tabiiy gazni tozalash va yetkazib berish, neft mahsulotlarini qayta ishlash korxonalaridan iborat. Ular xalq xo`jaligining barcha bo`g`inlarida xizmat ko`rsatadi. Yoqilg`I sanoatining yirik korxonalari Toshkent, Farg`ona, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida joylashgan.

Neft sanoati yo`qilg`I sanoatining eng muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi va neftni qayta ishlash korxonalaridan tashkil topadi. Hozirgi davrda sanoatning bu tarmog`I mamalakat xalq xo`jaligi va aholining

neftga bo'lgan talabini to'la qondirish imkoniyatlariga ega bo'ldi. Shu sababdan ham bu tarmoqning ahamiyati beqiyos.

Neftni qayta ishlash sanoati sohasida Oltiariq, Farg'ona, Buxoro neftni qayta ishlash zavodlari ishlab turibdi. Farg'ona zavodi surkov moylar va yoqilg'i ishlab chiqarishga ixtisoslashgan, ishlab chiqarish bo'yicha 30 dan ortiq texnologik qurilmaga ega. Oltiariq neft zavodi esa yonilg'i yo'nalishida: Ko'kdumaloq neft-gaz koni ochilgandan keyin 1993 yildan Fransiyaning TEKNEP firmasi bilan hamkorlikda Buxoro viloyatining Qorovulbozor tumanida Buxoro neftni qayta ishlash zavodi qurilishi boshlandi. Uning yiliga 2,5 mln tonna gaz kondensatini qayta ishlash quvvatiga ega bo'lgan 1-navbatda 1997 yil avgustda ishga tushurildi. Neftni qayta ishlash zavodlarida yuqori oktanli benzin, dizel yoqilg'isi, koks, paraffin, motor moylariga qo'shilmalar, yengil mashinalar uchun motor va surkov moylari (compressor, turbine, urchuq moylari), kerosin, bitum, suyultirilgan neft gazlari (butan, texnik propan va b.), mazut kabi 50 dan ortiq turdagi neft mahsulotlari ishlab chiqariladi. Yangi mahsulot turlari ishlab chiqariladi. Yangi mahsulot turlari ishlab chiqarish dasturiga muvofiq yangi texnologiyalar o'zlashtirilmoqda.

Hozirgi davrda respublika neft sanoati korxonalarining quvvati bir yilda 11 mln. tonna neftni qayta ishlash imkonini beradi.

Keyingi yillarda amalga oshirilgan tadbirlar natijasida neft (gaz kondensati bilan birga) qazib olish hajmi yuqori suratlarda o'sib bormoqda.

Gaz sanoati. Bu tarmog'i yoqilg'i-energetika majmuasining eng yosh, juda rivojlangan sohasi hisoblanadi. Gaz yoqilg'ining juda arzon turi, xalq xo'jaligining barcha sohalarida keng foydalanish mumkinligi hamda

ekologik jihatdan ustunlik tufayli unga bo'lgan talab kundan kunga o'sib bormoqda. Agar 1940 yilda atigi 0,7 mln m³ tabiiy gaz qazib olingan bo'lsa, hozirgi paytda u 55 mlrd m³ ni tashkil etadi. Gazning respublikada qazib olinayotgan yoqilg'I bilansidagi hissasi 87,2 foizga teng.

Respublika neft va gaz sanoatini rivojlantirishning uzoq davrga mo'ljallangan konsepsiyasi ishlab chiqilgan va u izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

Ko'mir sanoati. O'zbekiston Respublikasi qidirib topilgan 2 milliard tonna ko'mir zahiralariga ega. Ko'mir qazib olish va yetqazib berish ishlari bilan "Ko'mir" aksiyadorlik birlashmasi shug'ullanadi. Angren konida qo'ng'irk o'mir, Sharg'un va Boysun konlarida toshko'mir qazib olinadi. Ko'mir konlari korxonalar tomonidan turli usullarda o'zlashtirilayotir: ochiq usulda, yer osti va yer ostini gazlashtirish usuli bilan (Nou - Xou). Ko'mir energetika maqsadlarida va maishiy yo'qilg'I sifatida ishlatiladi. Ko'mirni qayta ishlashdan chiqqan chiqindi organik va mineral o'gitlarga aylantiriladi.

O'zbekiston hududining geologic xususiyatlari qo'shimcha foydali qazilmalarni o'zlashtirish va ularni qayta ishlash uchun imkoniyatlar yaratadi. Ayniqsa, yonuvchi slanes, ohak, berakli tosh konlarini o'zlashtirish ko'pchilikni qiziqitirdi. Keramzit, absorbent, o'g'it va g'isht ishlab chiqarish uchun yuqori sifatli loylar tayyorlash mumkin. Ularni ishlab chiqarishga joriy etish oddiy hisob-kitoblarga ko'ra, energetika, kimyo, metallurgiya sanoati, qurilish va qishloq xo'jaligi uchun yiliga 1 milliard 400 million AQSH dollari miqdorida tayyor mahsulot olish imkoniyatini beradi.

Bundan tashqari, Angren kaolinidan, Boysun ko'miri va ohagidan foydalanib turib loytabroq zavodlarini bunyod etish mumkin. Bu kabi qulay omillar va barqaror vaziyat xorijiy sheriklar bilan hamkorlik o'rnatish imkoniyatini kengaytiradi.

Metallurgiya sanoati. Hozirgi O'zbekiston hududida rudadan metal olish 4-5 ming yildan ziyod tarixga ega. Qadimda misdan turli buyumlar tayyorlangan. Keying rudadagi metallardan qalay, kumush, oltin va boshqalarni eritish, quyish va qizdirib ishlash o'zlashtirilgan, dastlabki tanga pullar zarb qilingan. Ilk o'rta asrlarda Farg'onada, Zarafshon, Chirchiq, Ohangaron vodiylaridagi bir qancha hududlarda zargarlik, misgarlik, temirchilik, deguzlik, rixtagarlik rivojlangan. Ruh, surma, margumush, vismut, kobalt, kabi rangli metallar ma'lum bo'lmasada, ularning qotishmalaridan keng foydalangan.

Qora metallurgiya sohasida faoliyat ko'rsatadigan yagona korxona Bekobod shahridagi O'zbekiston metallurgiya zavodidir. Zavodda qora metallurgiya mahsulotlarining eng muhim turlari (po'lat va po'lat prokatlar) ishlab chiqariladi. Ular temir-tersak, metal chiqindilaridan olinadi.

O'rta Osiyoning birinchi zamonaviy metallurgiya zavodi qurilishi umumxalq hashari yo'li bilan 1942 yilda boshlanadi va 1944 yilning 5 martida dastlabki metal eritmasi olinadi.

Rangli metallurgiya-respublika metallurgiyasining eng muhim, yetakchi tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Sanoatning bu turi O'zbekistonda XX asrning 25-yillaridan rivojlana boshladi. Asta-sekin rangli, nodir va qimmatbaho metal (mis, qo'g'oshin, rux, volfram, molibden, kumush, oltin, simob) konlari topildi.

Rangli metallar sifatini yaxshilash, ishlab chiqarish jarayonlarini intensivlashtirish, turli foydali qazilmalarning yangi konlarini o'zlashtirish hisobiga rangli metallurgiya ishlab chiqarishini rivojlantirish mo'ljallanmoqda, shu bilan birga, yangi fabrika va konlar barpo etiladi. Jizzax viloyatida O'zqoloq qo'rg'oshin-ruh koni, Surxondaryo viloyatida Xonrizm kon boyitish korxonasi quriladi. Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida mis, ruh, sulfat kislotasi va yo'ldosh elementlarni ishlab chiqarish ko'paytiriladi. O'zbekiston kombinatida yirik gobaritli molibden va volfram prokati hamda boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish mo'ljallanmoqda.

Oltin qazib olish sanoati. Markaziy Osiyoda, xususan, hozirgi O'zbekiston yerlarida miloddan avvalgi VI-V asrlardayoq oltin qazib olingan va undan turli taqinchoqlar, zargarlik buyumlari, bezaklar yasalgani mavjud arxeologik topilmalardan ma'lum. Tug'ma (erkin uchraydigan) oltin konlarini o'zlashtirishga qadar oltin asosan sochma konlarda juda ibtidoiy usullarda oltin zarralari aralash qumni qo'y terisi qorejagan yog'och to'goralarda yuvib, ajralib olingan. Sochma oltin olish X-XI asrlarda Chotqol, Chirchiq, Norin, Koson, So'x, Zarafshon, Darvoz daryolari vodiylarida olib borilganligi haqida ma'lumotlar bor.

O'rta asrlarda oltinli qumlarni yuvish bilan birga mo'g'ullar bosqiniga qadarkovlangan Chotqol-Qurama, Nurota tog'larida, markaziy qizilqumdagi konlarda tug'ma oltin kon lahimlari hozirgacha saqlanib qolgan. O'zbekistonda ma'lum bo'lgan konlarning ko'pchiligidan qadimgi konchilar qisman foydalanganlar.

Markaziy Osiyoning mineral xomashyo resurslarini o'rganishda jonlanishda XIX asrning 80-yillarida -Rossiya imperiyasi Turkiston

o'lkasini bosib olgan davrda yuz berdi; o'lkaning barcha joylarida tadqiqotlar o'tkazildi, geologik kartalar tuzildi, ayrim konlar tavsiflandi. Oktyabr to'ntarishigacha Chirchiq, Piskom va Chotqol daryolari vodiylarida kichik-kichik oltin izlovchi korxonalar oltin olish bilan shug'ullanganlar, 1913-17 yillarda Obirahmat darasi (Toshkent viloyati) dagi oltin konidan foydalanilgan.

O'zbekiston mineral xomashyo boyliklarini aniqlash, uni qazib olish va aksari qismini markazga tashib ketish oktyabr to'ntarishidan keyin ham davom etgan. Noyob metal konlarini qidirib toppish va ulardan foydalanish muammolarini hal qilish ishlarida markaziy ilmiy muassasalar faol ishtirok etdilar. 30-yillar boshida "O'zbekoltinnoyobmet" tresti tashkil etildi. O'sha yillari Ohangaron, Chirchiq daryolarivodiylarida, Qurama tog'larida oltin izlovchilar oltinni qumni yuvish usulida ajratib olganlar, lekin yillik oltin olish bir necha o'n km.dan oshmagan. Keyinchalik o'sha joylarda rudali oltin konlari topildi va ishga solindi.

1941-1945 yillarda oltin izlovchilik (artel) yo'li bilan oltin ajratib olish jadal olib borildi, dinga yillik oltin miqdori qariyb 50 kg ga yetdi. 1950 yilda sochma oltin izlash ishlari to'xtatildi. Rudali oltin izlash va qidiruv bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida Qoraqo'ton, Bichanzor, Pirmurod, G'o'vaksoy, so'ngra Ko'chbuloq, Muruntov, Chormiton, Marjonbuloq, Kauldi, Qizilolmalisoy, Sarmich va boshqa rudali oltin konlari topildi. 1965 yilda Metallurgiya vazirligiga bo'ysinuvchi "O'zbekoltin" birlashmasi va boshqa oltin qazib olish korxonalari tashkil etildi. Birlashma qazib olgan flyus rudalaridan Olmaliq kon-metallurgiya kombinatining kimyo eritish zavodida oltin ajratib olish yo'lga qo'yiladi. 1970 yili Chodak oltin koni ishga tushirildi. O'sha vaqtdan respublikada

oltin qazib olish sanoati shakllandi, oltin olish oldingi yillardagiga nisbatan uch marta ko'paydi. 1972 yilda Ko'chbuloq koni va Angren oltin ajratish fabrikasi loyiha quvvatlarida ishlay boshladi. 1977 yili Kauldi, 1980 yil Marjonbuloq oltin qazib olish majmui, 1989 yil Zarafshon va Qizilolmalisoy konlari foydalanishga topshirildi.

Respublika mustaqillikka erishishi bilan O'zbekiston hukumati uzoq yillar davomida sobiq ittifoq ixtiyorida bo'lgan oltin qazib olish sanoatini respublika mustaqilligini mustahkamlash yo'lida, rivojlanish bo'yicha bir qancha tashkiliy choralar ko'rdi. "O'zbekoltin" birlashmasi negizida O'zbekiston Respublikasining Qimmatbaho metallar Davlat Qo'mitasi tashkil etidi (1992 yil). Bu qo'mita 1994 yil o'zbekiston oltin qazib olish va olmosga ishlov berish korxonalari uyushmasi ("O'zolmosoltin") ga aylantirildi. "O'zolmosoltin" uyushmasi (Toshkent shahrida) va boshqaruvi Navoiy shahrida bo'lgan "Qizilqum-kamyobmetaloltin" koserini (1991) faoliyat ko'rsatmoqda. "O'zolmosoltin" uyushmasi tarkibida Angren, Marjonbuloq (Jizzax), Chodak (Namangan), Kauldi (Toshkent), Zarmiton (Samarqand) oltin konlari, olmos qirralash fabrikasi (Toshkent viloyati) va boshqa tashkilotlar bor.

Respublika oltin qazib olish sanoatining ikkinchi yirik markazi "Qizilqumkamyobmetaloltin" konserning bosh korxonasi – Navoiy konmetallurgiya kombinatidir. Kombinat Muruntov va boshqa oltin konlarini ishga tushurish maqsadida 1958 yildan boshlab qurila boshlagan. Uning asosiy ishlab chiqarish quvvatlari Zafarobod, Nurobod, Zarafshon, Uchquduq shaharlarida joylashgan. Yangi quvvatlarni ishga tushurish jadal olib borilmoqda. Kambinatda zargarlik buyumlari zavodi ishlab turibdi. Zarafshonda 1993 yilda tashkil etilgan oltin qazib olish bo'yicha

O'zbekiston – AQSH “Zarafshon - Nyumont” qo'shma korxonasi 1995 yilning may oyidan mahsulot bera boshladi.

Buyuk Britaniyaning “honro” firmasi bilan birgalikda Markaziy Qizilqumda oltin rudalari koni ishga tushurildi va oltin ajratib olish bo'yicha katta korxona – “Amatayti goldfildz” qo'shma korxonasi loyihasi amalga oshirildi.

Respublikada 40 oltin koni aniqlangan bo'lib, hozir bu konlarning faqat 12 tasi qazilmoqda. Oltinning asosiy zahiralari markaziy Qizilqumdagi oltin konlarida mujassam. O'zbek oltini jahonning eng yuqori sifat standartlariga mos bo'lib, to'rtta to'qqiz raqami bilan baholanadi va u oxirgi 20 yilda e'tibor (reklamasiga) olgani yo'q. so'nggi yillarda u sifati uchun bir necha bor xalqaro sovrinlar bilan taqdirlanadi.

Yevroosiyo kontinentida eng katta hisoblanadigan, rudasi tarkibida oltin ko'p bo'lgan Muruntov koni dunyodagi gigant konlari jumlasiga kiradi. Ushbu konning topilishi xalqaro geologiya jamoatchiligi tomonidan oltin qazib chiqarish bo'yicha XX asr ikkinchi yarmining eng katta kashfiyoti deb etirof etildi.

Muruntovdagi affinity korxonasida zamonaviy oltin tozalash texnologiyasi joriy etilgan bo'lib, u bir qancha nou-xauni o'z ichiga oladi. Bu esa, juda yaxshi Tovar ko'rinishiga ega bo'lgan yuqori probali oltin olish imkoniyatini beradi.

Mamlakat mustaqilligining dastlabki yillarida infratuzilmasi yuqori darajada rivojlangan Samarqand va Toshkent viloyatlarida oltin rudali konlar aniqlandi va razvedka qilindi. Dunyoning eng yirik oltin rudali orovinsiyasi bo'lgan Qizilqumdagi Muruntov koni bilan bir qatorda

Ajibugut, Bulutkon, Balpantov, Aritontov, Turbay va boshqa yangi konlar aniqlandi va o'rganildi.

Hozirgi O'zbekiston oltin zahirolari dunyoning eng mashhur va ishonchli banklarida saqlanmoqda. Ular orasida nemis "Doyche bank" va Shveysariyaning "YuBS" banki bor. Respublika hukumati katta daromad olish uchun bu oltinni ma'lum vaqtga valyutaga aylantirmoqda. Oltin zahiralarini garovga olib, o'zbekistonga strategic iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish uchun kreditlar ajratilmoqda.

Kimyo sanoati. Ushbu sanoatning shakllanishi 1932 yilda Sho'rsuv oltingugurt koni (Farg'ona) ishga tushirilishi bilan boshlangan. Bu korxona sobiq ittifoqda ishlab chiqariladigan oltingugurtning 57 foizini bergan. Kimyo sanoatining eng yirik korxonalariga Chirchiq elektr kimyo kombinati, Navoiy kimyo birlashmasi va Qo'qon superfosfat zavodi kiradi.

Kimyo sanoatining asosiy tarmoqlaridan biri mineral o'g'itlar ishlab chiqarish sohasidir. Unda qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan ammafos, ammiak selitrasi, ammoniy sulfat, superfosfat, karbonit, suyultirilgan ammiak, azotli va fosforli o'g'itlar ishlab chiqariladi. Chirchiq kimyo kombinati, Farg'ona azotli o'g'itlar, Navoiy kimyo birlashmasida asosiy turdagi azotli o'g'itlar, Qo'qon superfosfat zavodi, Samarqand kimyo zavodi, Olmaliq "Ammafos" birlashmasida ammofos, oddiy va ammoniylashgan, superfosfat, qumoq ammoniy kabi fosforli o'g'itlar ishlab chiqariladi.

O'zbekiston kimyo sanoati korxonalari bir yilda 717 ming tonna azotli, 117 ming tonna fosforli o'g'itlar ishlab chiqarish imkoniyatiga ega. 2000 yilda O'zbekistonda 834 ming tonna mineral o'g'itlar, 300 ming tonna

oltingugurt, 823,3 ming tonna sulfat kislota, 986 ming tonna suyultirilgan ammiak ishlab chiqarildi.

Kimyo sanoatida mineral o'g'itlar ishlab chiqarish hajmi respublika qishloq xo'jaligi ehtiyojlarini to'la ta'minlaydi, ularning bir qismi chetga chiqariladi. O'zbekiston qishloq xo'jaligida kaliy o'g'itlarga bo'lgan yillik ehtiyoj asoslangan meyorlar bo'yicha (100 % oziq modda hisobida) 800 ming tonnadan iborat. Qashqadaryo viloyatidagi kaliy tuzlari konlarini o'rganish va uning negizida kaliyli o'g'itlar ishlab chiqaradigan Tubagaton kaliy zavodi qurilishi rejalashtirilgan.

Sulfat kislota kimyo sanoati tarmoqlari uchun muhim xomashyodir. Respublikamizda sulfat kislota ishlab chiqaradigan yirik quvvatlarga ega. Olmaliq "Ammafos" birlashmasi, Samarqand kimyo zavodi, Navoiy kon-metallurgiya kombinati, Muborak gazni qayta ishlash majmuasida barpo etilgan.

Soda sanoatining Markaziy Osiyo mamlakatlarida yagona bo'lgan korxonasi-Qo'ng'irot soda zavodi qurilishi 1995 yildan boshlandi (yillik loyiha quvvati 210 ming tonna).

O'simliklarni himoya qilishning kimyoviy vositalari (defoliant, desikat, gerbisiy, insektisid, fungisidlar) "Farg'onaazot" birlashmasida (1965 yildan; magniy xlorid difolianti), Navoiy kimyo zavodida (1960 yildan; gerbisitlar, insektisidlar) ishlab chiqariladi. Bu korxonalarning yillik quvvati magniy xlorid defolianti bo'yicha 60 ming tonna, gerbisit va insektisitlar bo'yicha 5 ming tonnadan ortiq.

Respublika qishloq xo'jaligida o'simliklarni kasallik va zararkunandalardan kimyoviy himoya qilishda qo'llaniladigan oltingugurt kukuni sho'rsuv kon-kimyo korxonasida hamda Muborak gaz majmuasida

ishlab chiqariladi. Mahalliy resurslardan oltingugurt ishlab chiqarishni yiliga 50 ming tonnage yetkazish rejalashtirilgan.

Kimyoviy tolalar va iplar xilma-xil xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi. "Elektrokimyosanoat" ishlab chiqarish birlashmasida kaprolaktam (yillik quvvati 80 ming tonna), Farg'onakimyoviy tolalar zavodida asetat iplar "Navoiyazot" birlashmasida nitron akril tolalar (yiliga 40 ming tonnadan ko'proq), "Farg'onaazot " birlashmasida sellyulaza asetati (yillik quvvati 42 ming tonna) ishlab chiqariladi. Farg'ona furan birikmalari zavodida sellyulaza mustaqilligini ta'minlash bo'yicha paxta lintidan yiliga 30 ming tonna sellyuloza ishlab chiqarishga ixtisoslashgan quvvatlar barpo etilmoqda.

Respublika kimyo sanoatida ishlab chiqarilgan 32,6 ming tonna kimyoviy tola va iplarning 27,4 ming tonnasini nitron tola iplari, 5,2 ming tonnasini asetat iplari tashkil etadi. Kaprolaktamning yuz foizi (yiliga 65-70 ming tonna), asetat va nitron tolalarining deyarli uchdan ikki qismi respublikadan tashqariga jo'natiladi. Farg'ona kimyoviy tolalar zavodida 23 ming tonna kaprolaktamni qayta ishlab 20 ming tonna kapron va iplar tayyorlashga imkon beradigan quvvatlar qurilmoqda.

Kimyo sanoatida gidroliz korxonalari ikkinchi jahon urushidan keying yillardan qurila boshladi. Farg'ona furon birikmalari, Yangiyo'l biokimyo, Andijon gidroliz zavodlarida asosiy xomashyo-chigit shulxasi, sholi qobig'idan texnik etil spirit, furfural, ozuqa achitqilari (hamir turishlar), furil spirit, ksilit, lapral, katalizatorlar va boshqa mahsulot ishlab chiqarilgan. O'tgan asrning 90-yillari boshida ushbu zavodlarda g'alladan oziq-ovqat (etil) spirit ishlab chiqarish o'zlashtirildi: Andijon biokimyo zavodida yiliga 915 ming dal, Qo'qon ishlab chiqarish birlashmasida 1800

ming dal etil spirit ishlab chiqaradigan yangi quvvatlar ishga tushirildi. Natijada oziq-ovqat, tibbiyot, atir-upa va boshqa sanoat tarmoqlarini respublikamizning o'zida ishlab chiqarilgan spirt bilan ta'minlash imkoniyati yaratildi. Bu korxonalarda yiliga 4 ming tonnage yaqin karbon kislotalari ham ishlab chiqariladi. Andijon biokimyo zavodida quruq xlorella bromassasini tayyorlash yo'lga qo'yilgan.

Rezina mahsulotlari Angren "O'zbekrezinatexnika" birlashmasi va Toshkent rezinatexnika mahsulotlari zavodida ishlab chiqariladi. Ilgari asosan maxsus rezina mollari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan "O'zbekrezinatexnika" birlashmasi 1987 yildan boshlab xalq iste'moli mollari ishlab chiqarishga o'tdi. 1992 yildan birlashmada yengil avtomobillarning shinalari tayyorlash o'zlashtirildi. 1996 yildan yiliga yengil avtomobillar uchun 1,5 mln. dona, yuk avtomobillari uchun 200 ming dona shina ishlab chiqaradigan quvvatlar ishga tushirildi. Bundan tashqari, "O'zbekrezinatexnika" birlashmasi va kimyo sanoatining boshqa korxonalarida (Samarqand kimyo) kalishlar ishlab chiqarish yiliga 10 mln. juftga yetdi. Shuningdek, bu tarmoq korxonalari respublika avtomobil sanoati uchun rezina-texnika mahsulotlari ishlab chiqaradi.

Respublika plastmassa va propolen mahsulotlarini qayta ishlovchi (Ohangaron "Santexlit", Jizzax plastmassa quvurlari zavodi), markadagi lak-bo'yoq mahsulotlari (Toshkent "Rangli lak" firmasi-lak bo'yoq zavodi), mebel, sanoati uchun sintetik smolalar (Farg'ona furan birikmalari zavodi), ro'zg'or kimyosi mahsulotlari (O'zro'zg'orkimyo birlashmasi, Olmaliq ro'zg'or kimyosi zavodi, Namangan kimyo zavodi), Toshkent yog'-moy kombinati tarkibida sintetik yuvish vositalari ishlab chiqaradigan yirik korxonalar ushlab turibdi.

Yiliga 135 ming tonna politilen plyonkasi va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaradigan sho`rtan gaz-kimyoy majmuasi qurilmoqda.

Atir-upa mahsulotlari "Lola" firmasi (Toshkent), dori-darmonlar "o`zkiyofarm" birlashmasi (Toshkent kimyo-farmasevtika zavodi) va "O`zfarm sanoat" davlat aksiyadorlik konserni korxonalarida ishlab chiqarilmoqda.

Tarmoqdagi bir necha korxonalarda g`o`zapoyadan mebel va qurilishi sanoatida keng qo`llaniladigan yog`och tolali taxtalar (orgalet) ishlab chiqarish o`zlashtirildi.

Istiqbolida kimyo sanoatini rivojlantirish fosforit, selluloza, kaustik va kalsiy sodasi, kaliy o`g`itlari, o`simliklarni kimyoviy himoyalash vositalari, toluol, polimerlar kabi eng muhim xomashyo turlari bo`yicha respublikamizning mustaqillikka erishishini ta`minlash, mahalliy xomashyodan mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish, chet mamlakatlardan olinayotgan kimyo mahsulotlarining ko`p qismini, ya`ni asosiy turlarini respublikada ishlab chiqarishni tashkil etish, ishlab chiqarish chiqindilarini qayta ishlash ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, xorijiy texnologiyalardan foydalanish, ekologik muommolarini hal etish, kimyosanoatining eksport imkoniyatlarini kengaytirish yo`nalishlarida ish olib borilmoqda. Kimyo sanoati korxonalarida Xitoy, AQSH, Yaponiya, Germaniya, Italiya korxonalari bilan fan-texnika, savdo-sotiq sohalarida o`zaro hamkorlik yo`lga qo`yilgan, xorijiy sheriklar ishtirokida qo`shma korxonalar tashkil etilmoqda. Kimyo sanoati korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarish va ularni asosan hissadorlik jamiyatlariga aylantirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Respublika mustaqillikka erishgunga qadar kimyo sanoati korxonalari ham bevosita sobiq ittifoq kimyo sanoati vazirligi tomonidan boshqarilgan. O'zbekistonda kimyo korxonalari negizida 1991 yilda davlat konserni tashkil etildi. 1994 yildan konsern "O'zkimyosanoat" uyushmasiga aylantirildi.

Uyushma tarkibida 22 ta ishlab chiqarish korxonasi va birlashma, 8 qo'shma, 3 ilmiy-tadqiqot, 1 loyiha institute, tashqi savdo firmasi va qator tashkilotlar bor.

Navoiy shahridagi "Navoiyazot" ishlab chiqarish birlashmasi mamlakatimiz kimyo sanoatidagi yirik korxonalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda jamoatda 260 xil mahsulot ishlab chiqarilmoqda. 2000 yilda korxona 6300 tonna nitron tolasi, (tonna ammiak silitrasi ishlab chiqarish) 470 tonna metalon, 1000 tonna uksus kislotasi va 900 ming tonna ammiak silitrasi ishlab chiqargan. Korxona mahsulotlari 20 dan ortiq mamlakatlarga, jumladan, Bergriya, Pokiston, roq, Turkiya, Hindiston, Afg'oniston, Rossiya, Belorus, Qozog'iston va Turkmanistonga jo'natilmoqda.

"Navoiyelektrkimyo" zavodi hissadorlik jamiyati mamalakatimizdagi eng yirik korxonalardan biri hisoblanadi. Bu korxona o'simliklarni himoya qilishning kimyoviy vositalarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Unda "Bilan", "Fazalon", "Kotoran" qatoriga "Go'zal", "Sipermatin", "Ustine", "Bug'dordir", "Neoron", "Danibol", "Sumnalfs" singari chet el preparatlaridan qolishmaydigan o'ndan ortiq mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.

Mashinasozlik sanoati – xalq xo'jaligi uchun mashina va mexanizmlar, jihozlar, agregat va apparatlar, asbob-uskunalar, madaniy-

maishiy molar, shuningdek, mudofaa ahamiyatiga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi og'ir sanoat tarmoqlari majmuidir. Mashinasozlik sanoat butun xalq xo'jaligini texnika bilan ta'minlashda moddiy hisoblanadi. Fan-texnika taraqqiyoti, xalqning moddiy-madaniy faravonligi va mamlakat quvvati mashinasozlik sanoati taraqqiyotiga bog'liq. Uning ahamiyati, eng avvalo, fan-texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga va insonlar hayotining barcha sohalariga joriy etish asosida qo'l mehnatini mashina mehnatiga aylantirish, yengillashtirish, mashinani mashina bilan yaratish, tejamkorlikni ta'minlash va mehnatning mazmuni va xarakterini o'zgartirishdan iborat. Mashinasozlik sanoati mahsuloti sifatini yaxshilash, ishlab chiqarishning samaradorligini yuqori darajaga ko'tarishga imkoniyat yaratadi. Mashinasozlik sanoatining asosiy vazifasi milliy iqtisodning barcha sohalarini yuqori unum bilan ishlaydigan mehnat qurollari bilan ta'minlashdan iborat. Ular turli tarmoqlar va korxonalarda tayyorlanadi. Ular turli tarmoqlar va korxonalarda tayyorlanadi. Hozirgi kunda mashinasozlik sanoatining 15 tarmog'i mavjud bo'lib, ular tasarrufida 100 dan ortiq yirik korxonalar faoliyat ko'rsatdi.

Avtomobil sanoati-mashinasozlikning muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, uning korxonalarida (tarmoqlar) avtomobillar, tirkama (prisep) va yarim tirkama yuk tashish moslamalari, avtomobillarga ehtiyot qismlar, agregatlar va boshqa ehtiyot qismlar ishlab chiqariladi. Shuningdek, motosikllar, motorollerlar, mopedlar, velosiped ishlab chiqarish korxonalari ham avtomobil sanoati tarkibiga kiradi.

Qishloq xo'jaligi mashinasozligi 1931 yil "Toshqishloqmash" zavodining birinchi navbati ishga tushirildi. Zavod paxtachilik uchun

xilma-xil texnikalar ishlab chiqara boshladi. Hozirgi paytda bu tarmoq korxonalari qishloq xo'jaligi uchun mashinalar tizimiga tegishli barcha mashina-mexanizmlarni yetarli darajada ishlab chiqarmoqda.

Paxta tozalash sanoati mashinasozligi "O'zbekpaxtamash" Birlashmasida jamlangan. Uning tarkibida Toshkent mashinasozlik zavodi (Bosh korxona) Andijon "Tojmetall" zavodi va Kattaqo'rg'on "Paxtamash", Chustdagi "Olmospaxtamash" zavodlari, Toshkent davlat maxsus paxta tozalash uskunalari konstruktorlik byurolari bor. Bu sohaning asosiy mahsulotlari-paxta tozalash punktlari, paxta tozalash zavodlari uchun texnologik qurilmalar, arrali va javali (valikli) paxta tolasi ajratish (jun) mashinalari, linterlar, tola tozalagichlar, chigit saralash va tozalash mashinalari, transportyorlar, garam buzgichlar, paxta uzatkichlar, tunnel ochish mashinalari, paxta garamlarini shamollatish va chang tutish mashinalari, shuningdek, kanopni qayta ishlash mashina va qurilmalar-jami 50 xildan ortiq mahsulot turlarini o'z ichiga oladi.

Qurilish materillari sanoati. Respublika qurilish materillari ishlab chiqaradigan ko'p tarmoqli sanoatga ega. Sement, asbest-sement, devorbop materillar, yumshoq yopqish va gidroizolyatsiya materillari, tabiiy toshlardan qoplama material (plita)lar, noruda qurilish materiallari, qurilish keramikasi, issiqlik izolyatsiyasi materiallari, ohak, gips, bog'lovchi materillari va ulardan buyumlar, sanitariya-gigiena jihozlari, polimer xomashyodan qurilish materiallari va buyumlari, temirbeton konstruksiyalari va boshqa ishlab chiqarish tarmoqlari mavjud.

O'zbekistonda tabiiy xomashyodan qurilish materillari sifatida foydalanish tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Ayniqsa, binolar qurilishida xom g'isht, guvala, yog'och sinch, oddiy tuproq (-loy) dan

tiklanadigan paxsa asrlar davomida asosiy qurilish materiali bo'lib kelgan. Xumdonlarda pishirilgan g'isht, spool, chinni koshin ganch yo'nilgan granit, marmar toshlar saroy, madrasa, masjid, marmar toshlar saroy, madrasa, masjid, rabotlar qurilishida keng qo'llanilgan.

Hozirgi davrda ushbu tarmoq korxonalarida 100 dan ortiq nomdagi asosiy mahsulot turlari tayyorlanadi. Jumladan, 2000 yilda 3,3 mln.tonna sement, 235 mln. shartli taxta asbest-sement shiferlari, 1,7 mln.m² deraza oynalari, 1,2 mln.m² lenolium ishlab chiqarildi.

Yengil sanoat. Hozirgi davrda O'zbekiston yengil sanoat ko'p tarmoqli industrial kompleks bo'lib, uning tarkibida paxta tozalash zavodlaridan tashqari, to'qimachilik, trikotaj, shoyi to'qish, tikuvchilik, konpoyabzal, gilamchilik, chinni-fayans buyumlari va attorlik mollari ishlab chiqarish sohalarida 142 ta yirik va o'rta korxonalar bor. Respublika sanoat mahsulotlari umumiy hajmida yengil sanoat hissasi 20,5 % ni tashkil etadi. Bu tarmoqda 200 mingdan ortiq xodim ish bilan band. Yengil sanoat tarmog'ining eng muhim sohasidan biri bo'lgan paxta sanoati korxonalarida har yili 1,2 mln. tonnadan ortiq paxta tolasi, 100 ming tonnadan ortiq lint, 22,5 ming tonna chigit, 200 ming tonna urug'lik chigit tayyorlanadi. To'qimachilik sanoatini rivojlantirish maqsadida AQSH, Italiya, Turkiya, Pokiston, Hindiston, Koreya va boshqa mamlakatlar firmalari bilan ip gazlamalar ishlab chiqaradigan yangi qo'shma korxonalar tashkil etilmaoqda. Tikuvchilik korxonalarida 36 kompleks mexanizatsiyalashgan liniya va potoklar joriy etilgan.

XX asr boshlarida O'zbekistonda yengil sanoat sohasi asosan paxtani qayta ishlash korxonalaridan iborat bo'lib, yapli sanoat mahsulotining qariyb beshdan to'rt qismi shu sohaga to'g'ri kelgan. 1920 yillardan paxta

tozalash zavodlari, pillakashlik, yigiruv-to`quv, tikuvchilik, poyabzal fabrikalari qurila boshladi. 2000 yilda respublika yengil sanoati tarmoqlarida 474,4 mln.m² gazlama, shu jumladan, 424,9 mln.m² ip gazlama ishlab chiqarilgan.

Oziq ovqat sanoati. O`zbekiston Respublikasi xalq xo`jaligida oziq-ovqat sanoati eng muhim mavqeini egallaydi. Sanoatning bu tarmog`i asosan xomashyoni qayta ishlashga asoslangan. Respublika umumiy sanoati mahsuloti hajmida oziq-ovqat sanoatining ulushi 1994 yilda 9,7 1995 yilda 9,8 va 1998 yilda 12,43 2002 yilda kelib esa 13,3 ni tashkil etgan. Oziq-ovqat sanoati tarmog`ida go`sht-sut, yog`-moy baliq mahsulotlari, un-yorma, non, makaron, meva-sabzavot konservalari, qandolat, choy qadoqlash, uzum va shampan vinosi, spirt, aroq, tamaki, piva, chanqoqbosar ichimliklar, sovun va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaradigan ko`plab sanoat korxonalari faoliyat ko`rsatmoqda.

Respublika mustaqilikka erishgandan so`ng oziq-ovqat sanoatida chuqur tashkiliy va iqtisodiy o`zgarishlar amalga oshirildi. Ko`pgina korxonalar davlat tasarrufidan chiqarilib, ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirildi, ilgari ilgari tarmoq korxonalariga rahbarlik qilgan vazirliklar tugatilib, "Oziqovqatsanoat" davlat-aksiyadorlik konserni, "Oziqovqatsanoat-xolding" kompaniyasi "O`zgo`shsanoat" davlat-aksiyadorlik uyushmasi, "O`zdonmahsulot", "O`zbaliq" davlat-aksiyadorlik korparatsiyalari tashkil etildi.

Sanoat milliy iqtisodiyotining yetakchi tarmog`i hisoblanadi. Ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirishda, aholining turmush-darajasini oshirishda uning ahamiyati beqiyosdir. O`zbekiston sanoati juda katta tarixiy yo`lni bosib o`tgan va istiqlol yillarida, XXX asrning oxirgi 10 yilida tubdan

o'zgarib, bozor iqtisodiyoti talablariga mos ravishda rivojlana boshladi. 80-yillarning o'ztalaridan boshlangan sanoat inqirozi tugatilib, 1995 yildan boshlab uning o'sishi surati kuchaya boshladi. 2001 yildagi o'sish 1991 yildagiga nisbatan 300 foizni tashkil etadi.

Sanoatning eng muhim sohasi og'ir sanoat bo'lib, u boshqa tarmoqlarga nisbatan juda tez o'smoqda. Ayniqsa, uning yoqilg'i-energetika, mashinasozlik, metallurgiya va qurilish materillari tarmoqlari rivojlandi.

O'zbekiston sanoati fan-texnika taraqqiyoti boshqaruvi va tashkil etilishining takomillashuvi, kadrlar salohiyatining yuqori darajaga ko'tarilishi hamda xorijiy investisiyalarning ko'plab jalb etilishi tufayli izchil rivojlana boshladi. Mustaqillik yillarida uning tarmoq strukturasi tubdan o'zgardi va natijada yangidan-yangi tarmoqlar yuzaga keldi.

II-BOB. SANOAT TARMOQLARINI JOYLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH MASALALARI

II.1. Dehqonobod tumanida sanoat tarmoqlarini joylashtirish omillari

Sanoatni joylashtirishga tabiiy va texnik-texnologik, demografik, iqtisodiy, ekologik omillar, ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil qilish shakllari, transport vositalari ishlab chiqarishni joylashtirish harakteri ta'sir ko'rsatadi.

Tabiiy omillarga foydali qazilmalar, gidroenergetika va o'rmon boyliklarining miqdori va sifat ko'rsatgichlari hududning iqlimiy sharoitlari, tabiiy suv yo'llari hamda mehnat resurslarining joylashishi kiradi. Yuqoridagi barcha omillar ekologik omil bilan hisoblashishi shart. Dehqonobod tumanida foydali qazilmalardan kaliy tuz koni (Tepaqo'ton, Konsoy), neft-gaz koni (Qizilbayroq), gaz va kondinsat (Gushbuloq, Odamtosh, Tandirchi, Janubiy Tardirchi, Beshbuloq), dolomit (Beshbuloq), koni dala shpati va qurilish material konlarga boyligi bilan ajralib turadi. Tuman gidoresurslarga bir muncha kambag'al bo'lib, sanoat korxonalari uchun suv tanqisligi sezilib turadi. Tumanda katta va kichik O'radaryo bo'lib, bu daryolar ham yozga kelib suvi juda kamayib qoladi. Dehqonobod tumani mehnat resurslarga ancha boy hudud hisoblanadi.

Dehqonobod tumani hududi 4 ming km² bo'lib, relefini asosiy qismi tog'lardan iborat bo'lib, transport infratuzilmasini rivojlantirishga o'z ta'sirini ko'rsatadi, sababi sanoat joylashtirish va rivojlantirishda asosiy omil bo'ladi.

Dehqonobod tumani o'zbek katta trakti ustida joylashganligi, katta kuchlanishda elektr energiya ztkazish liniyalarini tuman hududidan o'tganligi hamda, yaqinda temir yo'li qurilishi tumanda sanoatni rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsata boshladi.

Dehqonobod tumanida Toshg'uzor-Boysun-Qumqo'rg'on temir yo'lini qurilishi tog'-kon sanoati tarmoqlarini rivojlantirishda muhim o'rin tutdi. Tog'-kon sanoati tarmoqlarida tabiiy sharoit korxonalarining texnik-iqtisodiy ko'rsatgichlariga ta'sir ko'rsatadi va bu foydali qazilma resurslar joylanishiga bog'liq. Masalan Tepaqo'tan kaliy tez koni 1975 yilda o'rganilgan bo'lib, shu vaqtgacha bu kondan foydalanilmay kelayotgan edi, sababi transport muommasi bor edi. Temir yo'lni qurilishi bilan Bshbuloq qishlog'ida kaliy o'g'itlar zavodi qurildi. Xom ashyo Tepaqo'tondan keltirilsa, suv pachkamar suv omboridan olindi, mahsulot chetga chiqarish uchun esa yonginasida temir yo'l vokzali joylashgan, mehnat resurslari, esa mahalliy aholidan olindi va aholi bandligi ham ortadi.

Aholi va ishlab chiqarishning joylashishi o'rtasida o'zaro mustahkam aloqa mavjud. Mehnat resurslarining geografik joylashishi, avvalo, ko'p mehnat sarflanadigan sanoat tarmoqlarining joylashishiga ta'sir etadi. Shuning uchun aholi siyrak bo'lgan hududlarda ko'p mehnat talab qiladigan sanoat tarmoqlari joylashtirilmaydi.

Dehqonood tumani aholi juda tarqoq joylashgan bo'lib, qishloqlar orasidagi masofa bir muncha uzoq, aholi asosan katta o'ra va kichik o'ra daryolari bo'ylarida zi joylashgan. Shuning ham ayrim sanoat tarmoqlari shu hududlarda joylashtirilmoqda. Masalan gumbuloq, Bibiqorasoch,

Beshbuloq, Navobod qishloqlarida oziq-ovqat va boshqa sanoat korxonalari joylashgan.

Fan-texnika taraqqiyoti hamma sanoat tarmoqlarini joylashtirishning asosiy omili hisoblanadi. Kimyolashtirish sanoatni joylashtirishga tabora ko'rpoq ta'sir ko'rsatmoqda. Kimyoviy usullarni qo'llash sanoatning joylashishiga iqlim ta'sirini kamaytirmoqda, natijada uning joylashishga sharoit yaratmoqda. Sanoatning joylashishiga texnologik jarayonlar xarakteri ham ta'sir etadi.

Birinchidan ishlab chiqarish texnologiyasi talab qilinadigan xomashyo va energiya harakteri, ishlab chiqariluvchi tayyor mahsulot turi va hususiyatlari, xom ashyo va tayyor mahsulotni tashish sharoitlarining o'zgarishiga bog'liq.

Ikkinchidan, hududning o'ziga xos xususiyatlari joylashtirilayotgan korxonalarning texnologik jarayonini tanlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Yuqoridagi omillarga e'tibor bersak Dehqonobod kaliy o'g'itlar zavodida fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda qurilganligi.

Xom ashyoni zamonaviy texnikalar yordamida qazib olinishi va tashishi, energiya etarligi, tayyor mahsulotni tashish uchun esa eng asosiy temir yo'lni borligi yaqqol misol bo'ladi va kelajakda zavodni 2 ikkinchisini qurish imkonini beradi.

Er osti boyliklarini qazib chiqarish va xom-ashyoni boyitish texnologiyasining takomillashuvi tog'-kon sanoatini tekis joylashtirish imkonini beradi. Ishlab chiqarish jarayonlarini kompleks avtomatlashtirish va kompyuterlashtirish mahsulotga sarflanadigan mehnatni kamaytiradi. Shu tufayli kopyuter texnologiyasiga asoslangan korxona (firma)lar aholi siyrak hududlarga joylashtirilsa, katta samara olish mumkin.

Sonatni joylashtirishda kontsentratsiyalash, ixtisoslashtirish, kooperativlashtirish va kombinatlashtirish kabi ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil qilishning progressiv shakllari katta rol o'ynaydi. Ishlab chiqarishning kontsentratsiyalashuvi natijasida korxona istemol qilish uchun juda katta homashyo va energetika bazasini vujudga keltirishi, korxona mahsulotini iste'mol qiluvchi hududni kengaytirish talab qilinadi. Dehqonobod tumanida juda katta foydali qazilma zahiralarini mavjud, ayniqsa kaliy tuzini zahirasi 300 yil etishi bashorat qilingan, bu mahsulot bo'lgan talabni ko'rligi muhim hisoblanadi. Tumanda bozor sharoitiga o'tishning hozirgi bosqichda yirik korxonalarni joylashtirish o'rniga o'rta va kichik korxonalarni qurish bir muncha qulay hisoblanadi.

Kimyo sanoatining turli tarmoqlarini joylashtirishda zamonaviy kimyo texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlari, ya'ni kimyo sanoatiga tegishli xom ashyoni ko'pligi, energetika resurslari hamda ko'p tarmoqlarning chiqindilarini majmualar tarzda qayta ishlash, bir turdagi xom ashyodan turli va bir turdagi mahsulotlarni har xil xom ashyodan olish, hisobga olinadi. Kaliy zavoddan chiqayotgan chiqindi tuzlardan sodda ishlab chiqarish uchun xom ashyo hisoblanadi va bu erga sodda zavodini qurish tavsiya etiladi.

Engil sanoat, oziq-ovqat sanoatining ko'pgina tarmoqlari mamlakatning barcha iqtisodiy rayonlari, bir qator tarmoqlari esa muayyan hududlarda joylashadi. Masalan Dehqonobod tumani aholi manzilgohlar bir-biridan ancha uzoqda joylashganligi, relefo tog' qismlardan iborat bo'lganligi bu erlarda sanoatni ayrim tarmoqlarini joylashtirishga to'g'ri keladi. Beliboyli, Boshcharbog' qishloqlarida aholini bir muncha ko'pligi bu erlarda non makaron mahsulotlarini igalb

chiqarish, qandolat mahsulotlari sanoati joylashtirish hamda konserva ishlab chiqarish yo'lga qo'yish kerak, uzoq Torqolchig'ay, Qizilcha qishloqlarida chorva mollari ko'p boqilishi sababli bu erlarda terini qayta ishlaydigan kichik korxonalar qurish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ahrabot, Duob, Boshcharbog' qishloqlarida kichik olma shartbati, olma qoqi ishlab chiqariladigan korxonalar qurish maqsadga muvofiq, chunki bu erlarda olma juda ko'plab etishtiriladi. Tuman nuxatni ko'plab etishtirilishi bu hudud konditer va qandolat mahsulotlari ishlab chiqarishni yo'lga qo'ysa bo'ladi. Shu maqsadda Gumbuloq, Bibiqorasoch, Qizilbayroq, novobor qishloqlari pecheni, qandolat va konditer ishlab chiqaradigan fabrikalar qurilmoqda.

Dehqonobod tumanida qurilishi materiallari sanoatini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Chunki bu hududda ohak, gips, dolomit plitalari ishlab chiqarish uchun etarli darajada xom ashyo va tayyor mahsulot tashish uchun transport xizmati bilan yaxshi ta'minlangan.

Dehqonobod tumani sanoat korxonasini joylashtirish hududi va joyini tanlash yangi qurilayotgan korxona xajmi va ixtisoslashishini ularni ishlab turgan, loyihalalayotgan korxonalar bilan aniqlash sanoat korxonalarini faqat geografik jihat to'g'ri joylashtirishga ham bog'liqdir. Korxona mazkur joyda qurishning maqsadga muvofiqligi, istimolchilarni ham e'tiborga olish zarur.

Dehqonobod tumani markazida Qarashina shaharchasida va Dehqonobod posyolkasida engil sanoat, oziq-ovqat sanoat korxonalarini qurishi katta samara beradi, chunki erda ishchi kuchi ham iste'molchi va tayyor mahsulot tashish uchun xalqaro avtomobil yo'li va temir yo'lni o'tganligi bunga yaqqol misol bo'ladi.

Tumanda mamlakat mudofaa qobiliyatini yanada yuqori darajada ko'tarish sanoatni joylashtirishni tashkil etishda, albatta, e'tiborga olinishi kerak bo'lgan muhim omillardan biri hisoblanadi. Chunki har bir qurilayotgan sanoat korxonasi muhim strategik, ob'ekt hisoblanadi va mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi, biz buni kaliy o'g'itlar zavodida ko'rishimiz mumkin.

Dehqonobod tumani tog'li tumani bo'lganligi uchun hudud juda ko'plab chorva mollari ayniqsa qo'y va echkilar ko'plab boqiladi. Shularni e'tiborga olib go'shtni qayta ishlayodigan, sutni qayta ishlaydigan, junni qayta ishlaydigan kichik korxonalarni qurish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yuqorida qayd etilgan sanoat korxonalarini qurish va ular joylashtirish eng avval yoshlarni ish bilan ta'minlash, ularni turmush tarzini farovonlashuviga xizmat qiladi.

Qurilayotgan Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodi to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 1 maydagi PP-632-sonli qarori bilan Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodi qurilishi investitsion loyiha asosida amalga oshirilishi belgilab berildi.

Vazirlar Mahkamasi 2007 yil 24 iyulda №150 sonli qarori qabul qilib zavodning tashqi infrastruktura ob'ektlarini moliyalashtirish, loyihalashtirish va qurish bo'yicha buyurtmachi, loyihachi hamda bosh pudratchi tashkilotlarni tayinladi.

Zavodning asosiy tarkibiy qismlari qayta ishlash majmuasa va tog'kon majmualarini hukumat tender komissiyasining qarori asosida "podklyuch" qurish qayta ishlash majmuasini "SITIK" (Xitoy) kompaniyasi

bilan, tog`-kon majmuasini “ZUMK Injiniring” (Rossiya) kompaniyasi bilan shartnoma tuzish belgilandi.

Kaliy xom ashyosi Dehqonobod tumanidagi Tepaqo`ton konidan yopiq usulda qazib olinadi. Konning aniqlangan zahirasi 215.3 mln.tonna ishga tushiriladigan birinchi uchastkada 44.547 mln.tonna kaliy xom ashyosi (KSL) zahirasi mavjud. Loyihalashtirilgan quvvat yiliga 700 ming tonna xom ashyoni qazib olishga mo`ljallangan. Qayta ishlash majmuasida shu miqdordagi xom ashyodan yiliga 200 ming tonna kaliy o`g`iti ishlab chiqariladi. Mahsulotning 110 ming tonnasi mamlakat ehtiyoji uchun ishlatiladi. 90 ming tonnasi eksport qilinadi.

TEO bo`yicha zavodning smeta qiymati jami 123 mln. 670 ming 700 AQSh dollariga teng bo`lib, jumladan:

Tog`-kon majmuasi – 56 mln.dollar

Qayta ishlash majmuasi – 43.9 mln dollar

Tashqi suv tarmog`i – 7 mln. 994.4 ming dollar

Uy joy qurilishi – 3.53 mln. dollar

Avtotransport vositasi – 3.799 mln dollar

Boshqa harajatlar – 8 mln. 447.3 ming dollar

Tashqi infrastruktura ob'ektlari.

1. Avtomobil yo`li “M-39 – Beshbuloq-Tog`aytemir-Qo`rg`ontosh-Xo`jaipoq”.

Uzunligi 46 km 1-kategoriyali yo`l.

Buyurtmachi: Respublika yo`l fondi.

Loyihachi: Qashqadaryo qidiruv loyiha kompleks ekspeditsiyasi

Pudratchi: Janubiy yo`l ekspluatatsiya qurilish korxonasi

Smeta qiymati 14 mln. 300 ming AQSh dollari

2. Tashqi elektr ta'minoti ob'ektlari.

Podstantsiya 110G`35G`6 (DZKU maydonida)

VL 110 kV (Dehqonobod PS – PS 110 DZKU) – 2 ta liniya 2.6 kmdan
Dehqonobod PSda 2 ta yacheyka o`rnatish.

Podstantsiya 35G`6 (rudnik maydonida)

VL 35 kV (PS DZKU – PS Rudnik) 2 ta liniya 35.4 kmdan

Buyurtmachi: Qashqadaryo elektr tarmoqlari AJ.

Loyihachi: “Selenergoproekt” instituti

Pudratchi: “O`zqishloqelektrqurilish” AJ, 9-MK

Smeta qiymati 3 mln. 723.3 ming AQSh dollari

3. Tashqi suv ta'minoti ob'ektlari.

Suv quvuri “Pachkamar - DZKU” – 44 km.

Suv quvuri “DZKU - rudnik” – 43 km

Nasos stantsiyalari – 5 ta

100 m³ lik suv havzalari – 3 ta

1500 m³ lik suv havzalari – 2 ta

Buyurtmachi: Qurilayotgan Dehqonobod kaliyli o`g`itlar zavodi
direktsiyasi

Loyihachi: “O`zGIP” OAJ loyiha instituti

Pudratchi: “O`zbekgidroenergoqurilish” OAJ, NATEM ShK

Smeta qiymati 7 mln. 994.4 ming AQSh dollari

4. 1700 aholiga yashash uy joylari ob'ektlari

Birinchi navbatda quriladigan ob'ektlari

Ikki xonadonli 4 xonali kotejlar – 5 ta

Ellik o`rinli yotoqxona – 4 ta (1 ta tog`kon majmuasida)

O`n o`rinli mehmonxona – 1 ta

Buyurtmachi: Qurilayotgan Dehqonobod kaliyli o`g`itlar zavodi
direktsiyasi

Loyihachi: “O`zme`morqurilish” MChJ loyiha instituti

Pudratchi: “Qashqadaryoneftgazta`mirlashqurilish” OAJ,
“Hisoraksuvqurilish” OAJ

Smeta qiymati 3 mln. 530 ming AQSh dollari

5. Aloqa ob'ektlari:

Optik tolali aloqa kabeli (VOLS) 5.2 km

Tog`kon majmuasiga uyali aloqa (O`zmobayl kompaniyasi)

Buyurtmachi: “O`zbektelekok” AK.

Loyihachi: “Aloqa loyiha” instituti

Pudratchi: “Aloqainvest” AJ

Smeta qiymati 393.0 ming AQSh dollari

6. Gaz ta'minoti ob'ektlari.

AGRS qurilmasi

Gaz quvuri 0.5 km

Buyurtmachi: "O`ztransgaz" AK.

Loyihachi: "ORION GRUP" MChJ loyiha instituti

Pudratchi: "Naklgazmahsusqurilish" OAJ

Smeta qiymati 414.0 ming AQSh dollari

7. Temir yo`l ob'ekti – 1 km (bir yo`lli iz)

Buyurtmachi: "O`zbekiston Temir yo`llari" DATK.

Loyihachi: "Toshtemiryo`lloyiha" loyiha instituti

Pudratchi: "MPMS" yo`l xo`jaligi boshqarmasi AJ

Smeta qiymati 521.9 ming AQSh dollari

2-2 Dehqonobod tumanida sanoat tarmoqlari, ularni rivojlantirish masalalari va kelajak iqtibollari

Qashqadaryo qadimdan dehqonchilik va shaharsozlik rivojlangan zamindir. Viloyat mamlakatda tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati bilan ajralib turadigan, bugungi kunda iqtisodiyot tarmoqlarining har tomonlama jadal rivojlanish kuzatilayotgan mintaqadir. Maydoni 28.6 ming kv.km bo`lib, aholisi 2565.9 ming kishini tashkil etadi. Aholisining 43 %i shaharlarda, 57 %i qishloqlarda istiqomad qiladi. Viloyatda mehnat resurslari soni 13 ming kishi bo`lib, aholining 54 %ini tashkil etadi.

Mehnat resurslari miqdorining hududiy jihatlari taqdim qilinganda etakchi o`rinlarda Shaxrisabz (157.2 ming) Chiroqchi (152.3 ming) Kitob (116.9 ming) Koson (116.2 ming kishi) tumanlari turishi aniqlangan. (01.01.2009) Mehnat resurslarining miqdori ortishi bevosita aholining tabiiy qo`payishiga bog`liq holda ro`y beradi. Viloyatda aholi tabiiy o`sishi

ko'rsatkichlarining so'ngi yillarda ancha oshgani kuzatiladi. 2005 yilda tabiiy o'sish 43360 kishiga teng bo'lsa, bu har 1000 kishiga 18 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2008 yilda tabiiy o'sish 54078 kishi, ya'ni 21.3 %ni tashkil etgan. Aholi bandlik darajasi viloyatda yaratilayotgan yangi ish o'rinlari hisobiga ortib bormoqda. 2005 yilda iqtisodiyotda band bo'lgan aholi 821.7 ming kishi, 2008 yilda esa 908.7 ming kishi ro'yxatda olingan. Buning katta (K) qismi (746.5 ming kishi) nodavlat korxona va tashkilotlariga, 162.2 ming kishi davlat korxona va tashkilotlariga to'g'ri keladi. 2000-2007 yillarda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad ko'rsatkichlari 6 marta, ish haqi 8.5 marta oshdi. Aholini ish bilan ta'minlash bo'yicha yangi ish o'rinlarining yil sayin ko'payib borishi kuzatilmoqda. Yaratilgan ish o'rinlarining 88 %i qishloq joylarga to'g'ri keladi, bunda asosan mahalliy sanoat va kasanachilikka alohida e'tibor qaratilmoqda. 2008 yilda 60 mingga yaqin yangi ish o'rinlari yaratildi. Bu miqdorning yarmidan ko'prog'i (37 ming) kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hissasiga to'g'ri keladi.

Viloyat iqtisodiyotida sanoat tarmoqlarining, ayniqsa, yoqilg'i-energetika, kimyo, qurilish materiallari, oziq-ovqat va engil sanoat sohalariga tegishli korxonalarning faoliyati sezilarli darajada o'smoqda. 01.01.2008 y. Holatida ko'ra viloyatda jami 1441 ta yirik va kichik biznesda faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari mavjud bo'lib, 465 ta engil sanoat 494 ta oziq-ovqat, 65 ta qurilish materiallari, 53 ta yog'ochni qayta ishlash, 7 ta yoqilg'i-energetika sanoati hamda 306 ta korxona sanoatning boshqa sohalarida faoliyat ko'rsatmoqda. Respublikamizda ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining 12.3 %i viloyat hissasiga to'g'ri keladi.

2000-2007 yillarda 26 ta qo'shma korxona tashkil qilib, 130 mln. 8 miqdorida investitsiya oadi qilindi. Viloyat mamlakatning asosiy yoqilg'i-energetika bazasi hisoblanadi. Respublikada ishlab chiqarilayotgan tabiiy gazning 96 %i, neftning 92 %i, oltingugurtning 100%i va kondensatning 97.5 %i viloyat hissasiga to'g'ri keladi. Viloyatda bir yilda jami 60 mlyard.m3 tabiiy gaz, 165 ming t.oltingugurt, 210 ming t. suyultirilgan gaz, 3190 ming.t. neft, 1900 ming.t. kondensat, 130 ming.t. politilen ishlab chiqariladi. Yoqilg'i sanoatning gigant korxonasi bo'lgan "Sho'rtangazkimyo" majmuasi tomonidan bugungi kunda 130 ming.t. polietilen, 110 ming.t. syultirilgan gaz va 1.5 ming.t. oltingugurt ishlab chiqarilmoqda. Majmua tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning 60%i Polsha, Vengriya, Litva, Latviya, Turkiya, Eron, Pokiston, Xitoy, Ukraina, Rossiya, Ozarbayjon va Qozog'iston davlatlariga eksport qilinmoqda. Viloyatda kimyo sanoatining kelajakda rivojlanish imkoniyatlari kattadir. Dehqonobod tumanida 200 ming.t. kaliy o'g'iti ishlab chiqaradigan zavodning qurilayotganligi bu sohaning istiqbolli taraqqiyotidan dalolat beradi.

Viloyat sanoat tarmoqlari tarkibida engil va oziq-ovqat sanoati korxonalarining ham hissasi muayyan darajada ortib bormoqda. 2008 yil 1 yanvar holatiga ko'ra viloyatda to'qimachilik korxonalari soni 6 taga etdi. Jumladan, yiliga 4800 t. kalava ip va 2000 t. trikotaj matolar ishlab chiqaradigan "Oqsaroy to'qimachilik LTD" Q.K., yiliga 3350 t. kalava ip ishlab chiqaradigan "Yakkabog' teks" Q.K. yiliga 300 t. kalava ip ishlab chiqaradigan "Qamashi XBK" korxonalarining faoliyati etakchi hisoblanadi. Bu tarmoqda "Kitob ip yigiruv", "Kashteks", "Xumoteks", "Sanam", "Qamashi XBK" va "Bunyodkor" to'qimachilik korxonalari ham

viloyat engil sanoati rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shmoqda. Viloyatda etishtiriladigan paxtaning 6.5 %i shu korxonalarida qayta ishlanmoqda.

Viloyatda oziq-ovqat sanoati korxonalari tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotlar ham miqdoriy, ham sifati jihatidan rivojlanib bormoqda. Jami viloyat sanoat mahsulotlarining 4 %ini tarmoq tarkibiga kiruvchi 4 ta yirik korxona: "Qarshi yog'", "Koson yog'-ekstraktsiya" qo'shma korxonalari, "Shahrisabz konserva", "Sharob-arog" H.J.lari ishlab chiqarilgan mahsulotlar tashkil etadi. 2008 yil 1 yanvar holatiga ko'ra tarmoq korxonalari soni 494 taga etdi, ishlab chiqarish hamji 22.4%ga, eksport hajmi esa 2.1 marta o'sganligini ko'rish mumkin.

Viloyatning kelajakdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi borasida ko'plab istiqbolli rejalarning amalga oshirilishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi va buning natijasida aholi bandlik darajasining oshishiga erishishda viloyatda investitsion imkoniyatlardan keng foydalanish va investitsiya makonini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Darhaqiqat, "XXI asr mo'jizasi" nomini olgan "Toshguzar – Boysun - Qumqo'rg'on" temir yo'lining ishga tushirilishi O'zbekistonning qudrati nimalarga qodir ekanligini yana bir bor butun jahonga namoyish etdi. Mazkur temir yo'lning tog'lik tuman hududidan o'tishi ham chinakam mo'jizaning o'zginasi bo'ldi.

Ilgari – sobiq sho'rolar davrida Dehqonobodga chekka hudud sifatida qaralardi. Endi esa to'la ishonch bilan aytish muhimki, buyuk Istiqlol sharofati bilan tuman industrial hududga aylanib bormoqda. Hozirgi paytda tumanda 6 ta yirik loyiha asosida bunyodkorlik ishlari boshlab yuborilganligining o'zi ham fikrimizni ro'y-rost isbotlaydi. Keling, ularni birma-bir sanab o'taylik. Yiliga 4-5 ming tonna ip kalava, 2 million

dona elektr energiyasi quvvatini tejovchi lampochka, 400 ming jift oyoq kiyim, 800 ming tonna makaron, 16 ming tonna qandolat mahsulotlari, 5,6 tonna shirinliklar ishlab chiqaradigan korxonalar qurilishi jadallik bilan borayotgani tumanning sanoat ishlab chiqarish hududiga aylanganining timsoli. Texnologik jihozlar uchun 7 million 525 ming AQSh dollar miqdorida mablag` ajratilishining o`zi ham hududni rivojlantirishga e'tiborning ramzi emasmi? Mazkur korxonalar ishga tushgach, 700 nafarga yaqin kishi ish bilan ta'mindanishi ko`zda tutilmoqda.

Shuningdek, ayni paytda tumanda 3 ta sutni, 1 ta go`shtni qayta ishlash korxonalari, 40 o'yokshtdsh mehmonxona, 200 o`rinli restoran, savdo majmuasi, 3 ta to`yxona, 5 ta avtomobillarga xizmat ko`rsatish va yoqilg`i quyush shahobchasi qurilishi nihoyasiga etkazilib, texnologik asbob-uskunalar o`rnatish davom etmoqda. Quvonarlisi shundaki, tumanda barcha sohani birdek yuksaltirishga diqqat-e'tibor kuchaytirilmoqda. Oilaviy tadbirkorlikni taraqqiy ettirish uchun 1 milliard 285 million so`mlik mablag`ning ajratilganligi aholi bandligi bilan birga ular farovonligini oshirishga omil bo`layotganligini alohida takidlashimiz zarur.

Joriy yilning o`tgan aylari davomida tuman tadbirkorlar tomonidan 10 ta kichik sanoat korxonasi, 17 ta xizmat ko`rsatish va servis korxonasi foydalanishga topshirilgani ham hududda kichik biznes va tadbirkorlik rivojlanayotganligini ko`rsatadi. Yiliga 15 million dona pishiq g`isht, 2 ta quvvati 4 ming tonna ohak va 2 ming tonna gips hamda 10 ming kvadrat metr dolomit toshidan plitka ishlab chiqarish korxonalari faoliyati yo`lga qo`yildi. Ishlab chiqarushni kengaytrish va aholi bandligini ta'minlash uchun "O`zbektelekom" akyiyadorlik kompaniyasi tomonidan "Angor"

zotli echkilarni ko`paytirish maqsadida ixtisoslashtirilgan xo`jalik tashkil etildi. Shuningdek, "Sho`rtangazkimyo" majmui tomonidan ham tumanda xuddi shunday ixtisoslashtirilgan ho`jalikni tashkil etish mo`ljallanmoqda. Kelgusida echkilik ho`jaliklarning tarkibida junni titish va qayta ishlash texnologiyasi keltirildi.

Kelajakda Dehqonobod tumani industrial hududlardan biriga aylantirish uchun muhim ishlar amalga oshiriladi.

Dehqonobod kaliyli o`g`itlar zavodini 2-chi qismini qurilishi, zavod chiqaradigan chiqindilarni qayta ishlaydigan sada zavodini qurilishi, Beshbuloq dolomit koni hom ashyosidan Qizilchada chinni zavodi va boshqa engil sanoat korxonalarini qurilish tumanni kelajakda sanoatlashgan tumanga aylanishidan darak beradi.

Prezidentimiz I.Karimov aytganidek Dehqonobod kelajakda sanoatlashgan-industrial tumanga aylanadi, buning uchun bu erda ishchi kuchi ham, xom ashyo ham transport ham etarli darajada ta'minlangan.

Dehqonobod tumanida sanoat tarmoqlarini rivojlantirish uchun eng avvalo tabiiy omillarni etiborga olish zarur. Tuman hududini reliefi, iqlim sharoiti va foydali qazilmalariga e'tibor berish kerak. Hamda ekologik omilga ham e'tibor qaratish lozim. Chunki avvalo tog`-kon sanoatini rivojlantirishda albatta yuqoridagi omillarga e'tibor qaratiladi. Ijtimoiy amollar esa sanoatni rivojlanishi bilan yonma-yon borad.

Tumanda sanoatni rivojlantirish avval transport omiliga bog`liq, chunki xom ashyo tashish, tayyor mahsulotni iste'molchiga etkazish transportga bog`liq. Dehqonobod tumanidan xalqaro avtomobil yo`lini o`tganligi va temir yo`lni qurilishi mahsulotni iste'molchiga etkazish va

eksport qilishda muhim o`rin tutadi. Shuning uchun ham ko`pgina sanoat korxonalari katta yo`l yoqasida barpo etilgan va barpo etilmoqda.

“Mamlakat istiqbolini belgilab beradigan sanoat sohasini jadal rivojlantirish bilan bog`liq iqtisodiy islohatlarimizni malga oshirish bundan keyin ham doimiy diqqat markazimizda bo`ladi, dedi” I.Karimov.

I.Karimov mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanish istiqbollari haqida to`xtalar ekan, bu borada ishlab chiqilgan kontseptsiya har bir mintaq va hududni uning mavjud imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, mutanosib rivojlantirishni nazarda tutishini qayd etdi.

I.Karimov “Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo`lida” Toshkent 2008 y.

XULOSA

Dehqonobod tumani viloyatda tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ajralib turadi, bugungi kunda iqtisodiyot tarmoqlarining har tomonlama rivojlanishi kuzatilayotgan tumandir.

Maydon 4 ming km² aholi 105 ming kishidan ortiq va aholini 90 % dan ko'pi qishloqlarda istiqomad qiladi.

Tuman iqtisodiyoti sobiq ittifoq davrida juma past va chekka hududlardan biri bo'lib kelayotgan edi. Bugungi kunda esa yirik qurilishlar obodonlashtirish o'chog'iga aylangan.

Dehqonobod tuman iqtisodiyotida sanoat tarmoqlarining, ayniqsa, kimyo, qurilish materiallari, oziq-ovqat va engil sanoat sohalariga tegishli korxonalarni faoliyati sezilarli darajada o'smoqda.

“XXI asr mo'jizasi” nomini olgan “Toshguzar-Boysun-Qumqo'rg'on” temir yo'lining ishga tushirilishi O'zbekistonning qudratini nimalarga qodir ekanligini yana bir bor butun jahonga namoyish etdi. Mazkur temir yo'lining bog'liq tuman hududidan o'tishi ham chinakam mo'jiza bo'ldi.

Ilgari – sobiq ittifoq davrida Dehqonobodga chekka hudud sifatida qaraladi. Endi to'la ishonch bilan aytish mumkinki, buyuk istiqlol sharofati bilan tuman industrial hududga aylanib bormoqda.

Dehqonobod tumani er osti foydali qazilmalariga boy tumanlardan hisoblanadi.

Tumanda neft-gaz (Qizilbayroqda), gaz va gaz-kondensati (Gumbuloq, Odomtosh, tandirchi, Dehqonobod) konlari, kaliy tuzi (Tepaqo'tan) koni, dala shtapi (Arabdasht), yonuvchi skanets

(Qizilbayroq), dolomit (Beshbuloq), keramzit xom ashyosi, ohaktosh va boshqa konlarni mavjudligi muhim ahamiyatga ega va ayrim sanoat tarmoqlarini joylashtirish va rivojlantirishga imkon yaratadi.

Hozirgi paytda tumanda 6 ta yirik loyiha asosida bunyodkorlik ishlari boshlab yuborilganligi va ayrimlari ishga tushish holatida turganligi fikrmizini isbotlaydi. Yiliga 4-5 ming tonna ip kalava ishlab chiqaradigan fabrika (Qarashinada) Novobod qishlog`ida 2 mln. dona elektr energiyasi quvvatini tejovchi lampochka zavodi, Dehqonobodda 400 ming juft oyoq kiyimi ishlab chiqaradigan poyabzal fabrikasi, 16 ming tonna makaron ishlab chiqaruvchi fabrika, Gumbuloq, Bibiqorasoch qishloqlarida 5,6 tonna ishirnliklar ishlab chiqaradigan korxonalar qurilishi olib borilayotganligi tumanning sanoat ishlab chiqarish hududiga aylanganiga yaqqol misol bo`ladi.

Hozirgi iqtisodiy inqiroz davrida mamlakatimizda sanoatni o`lishidan dalolat beradi va mazkur loyihalarni texnologik jihozlar uchun 7 million 525 ming AQSh dollari miqdorida mablag` ajratilishi o`zi ham hududni rivojlantirishga e'tibor qaratilish ramzidir. Mazkur korxonalar ishga tushgach 1000 nafarga yaqin kishi ish bilan ta'minlanadi.

Dehqonobod tumanida ayni paytda 3 ta sutni, 1 ta go`shtni qayta ishlash korxonalari bor. Tuman tog`li hudud bo`lganligi sababli bu erda ko`plab qo`y-echki va angor echkilari boqiladi.

Kelgusida g`ishtli qayta ishlash junni titish va qayta ishlash texnologiyasi keltiriladi. Bugungi kunda tumanda barcha sohani yuksaltirishga e'tibor qaratilmoqda. Oilaviy tarbirkorlik rivojlantirish uchun 1 milliard 285 million so`mlik mablag` ajratilganligi aholi bandligi bilan bo`layotganligini alohida takidlashimiz zarur.

Tumanda joriy yilda tadbirkor tomonidan 10 ta kichik sanoat korxonasi, 17 ta xizmat ko'rsatish va servis korxonasi foydalanishga topshirilganligi hududda kichik biznes va tadbirkorlik rivojlanayotganligini ko'rsatadi. Yiliga 15 million dona pishiq g'isht, 4 ming tonna ohak, 2 ming tonna gips, 10 ming kvadrat metr dolomit toshidan plitka ishlab chiqarish korxonalari faoliyat yo'lga qo'yilgan.

Kelajakda 2 kaliyli o'g'itlar zavodi, sodda ishlab chiqarish zavodi, chinni buyumlar ishlab chiqarish zavodlari qurilishi yo'lga qo'yiladi.

Biz BMIda Dehqonobod tumanida sanoat tarmoqlari rivojlantirish va joylashtirishda quyidagi xulosalariga keldik:

- tumanda sanoat korxonalarini joylashtirishda tabiiy va texnik-texnologik omillarga e'tibor berishni;
- tog'-kon sanoati joylashtirishda foydali-qazilmalar va gidravlik resurslarga joylashishiga;
- kimyo sanoatini korxonalarini joylashishida suv resurslarga bog'liqligi;
- mehnat resurslarini geografik joylashishiga;
- aholi siyrak bo'lgan hududlarda ko'p mehnat talab qiladigan sanoat tarmoqlarini joylashtirmaslik;
- er osti boyliklarini qazib chiqarish va xom ashyoni boyitish texnologiyalariga e'tibor qaratishni;
- tumanda oziq-ovqat sanoati korxonalari ko'proq joylashtirish;
- bozor sharoitida o'rta va kichik korxonalarni rivojlantirish;
- transport omilini hisobga olish;
- sanoatni joylashtirishda iqtisodiy, ekologik omillarga e'tibor qaratishni;

ILOVA